O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
DAVLAT BOJXONA QO‘MITASI
BOJXONA INSTITUTI

S.SHOMIRZAEV, B.SHERALIEV, F.GAFUROV

# BOJXONA SOHASIDAGI MA’MURIY HUQUQBUZARLIKLAR TO‘G‘RISIDAGI ISHLARNI YURITISH TARTIBI VA PROTSESSUAL HUJJATLAR NAMUNALARI

USLUBIY KO’RSATMA

TOSHKENT – 2022

**Shomirzaev S., Sheraliev B., Gafurov F.,** Bojxona sohasidagi ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritish tartibi va protsessual hujjatlar namunalari. // Uslubiy ko’rsatma. - T: DBQning Bojxona instituti, 2022. - 94 b.

**Taqrizchilar**:

**A.Axlimirzaev** – DBQning Surishtiruv va ma’muriy amaliyot boshqarmasi boshlig‘i

**U.Dadaboev –** DBQning Bojxona instituti Tashkiliy nazorat va xizmat faoliyatini tahlil qilish va baholash bo’limi boshlig’i

Ushbu uslubiy ko’rsatma bojxona sohasiga oid ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritishda zarur hujjatlar namunalarini o‘z ichiga olgan bo‘lib, bojxona organlarining mazkur sohadagi faoliyatida qonuniylik hamda yagona amaliyotni ta’minlashga xizmat qiladi.

*Mazkur uslubiy ko’rsatma DBQ Bojxona instituti Kengashining 2022 yil 1 martdagi 2-son yig‘ilishi 2/5.1-son qarori bilan nashr qilishga tavsiya etilgan.*

**@ Davlat bojxona qo‘mitasining Bojxona instituti, 2022-yil.**

# M U N D A R I J A


| | | |
|---|---|---|
| | **KIRISH ……………………….........……………………** | **7** |
| **I-BOB.** | **BOJXONA SOHASIDAGI MA'MURIY HUQUQBUZARLIK FAKTINI RASMIYLASHTIRISH JARAYONI...………......….** | **10** |
| 1.1-§ | Bojxona sohasidagi ma'muriy huquqbuzarlik holatlarini rasmiylashtirishning asosiy qoidalari…............................... | 10 |
| 1.2-§ | Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi bayonnoma namunasi…....................................................................... | 16 |
| 1.3-§ | Ma'muriy huquqbuzarlik yuzasidan huquqbuzarning tushuntirish xati namunasi.................................................. | 19 |
| 1.4-§ | Shaxsning avval ma'muriy javobgarlikka tortilganligini tekshirish to'g'risida talabnoma namunasi........................... | 21 |
| 1.5-§ | Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi bayonnomani vakolatli organga jo'natish bo'yicha xat namunasi……........ | 22 |
| 1.6-§ | Jinoyat alomatlari mavjudligi sababli ishni prokurorga yuborish bo'yicha xat namunasi……………........................... | 23 |
| **II-BOB.** | **BOJXONA SOHASIDAGI MA'MURIY HUQUQBUZARLIK TO'G'RISIDA ISH YURITISHNI TA'MINLASH CHORALARI…........….** | **24** |
| 2.1-§ | Bojxona sohasidagi ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ish yuritishni ta'minlashning asosiy qoidalari.. | 24 |
| 2.2-§ | Ma'muriy yo'l bilan ushlab turish to'g'risida bayonnoma namunasi......................................................................... | 35 |
| 2.3-§ | Shaxsni ma'muriy yo'l bilan ushlab turilganligi haqida prokurorga xabarnoma namunasi........................................ | 37 |
| 2.4-§ | Ushlab turilgan joy haqida ushlab turilgan shaxsning qarindosh-urug'lari, advokat, ish yoki o'qish joyidagi ma'muriyatga xabarnoma namunasi.................................. | 38 |
| 2.5-§ | Voyaga etmagan shaxs ushlab turilgani haqida uning ota-onasi yoki ular o'rnini bosuvchi shaxslarga xabarnoma namunasi......................................................................... | 39 |
| 2.6-§ | Shaxsni ma'muriy yo'l bilan ushlab turish muddatini uzaytirish haqida qaror namunasi......................................... | 40 |
| 2.7-§ | Shaxsni ko'rikdan o'tkazish va ashyolarni ko'zdan kechirish to'g'risida bayonnoma namunasi.......................... | 41 |
| 2.8-§ | Ashyolar va hujjatlarni olib qo'yish to'g'risida bayonnoma namunasi ....................................................................... | 43 |
| 2.9-§ | Transport vositasini to'xtatish, ko'zdan kechirish va ushlab | |

| | | |
|---|---|---|
| | turish haqidagi bayonnoma namunasi................................. | 44 |
| 2.10-§ | Ekspertiza tayinlash haqida qaror namunasi......................... | 46 |
| 2.11-§ | Ekspertiza xulosasi namunasi............................................ | 47 |
| 2.12-§ | Tarjimon tayinlash haqidagi qaror namunasi....................... | 48 |
| **III-BOB.** | **BOJXONA SOHASIDAGI MA’MURIY HUQUQBUZARLIK TO‘G‘RISIDAGI ISHNI KO‘RIB CHIQISH……….......……………...……….** | **49** |
| 3.1-§ | Bojxona sohasiga oid ma’muriy huquqbuzarliklar to’g’risidagi ishlarni ko’rib chiqishning asosiy qoidalari...... | 49 |
| 3.2-§ | Ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ish materiallari bilan tanishib chiqqanligi haqidagi tilxat namunasi...................... | 52 |
| 3.3-§ | Ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atilgan shaxsga ishni ko‘rib chiqish joyi va vaqti haqida xabarnoma namunasi......................................................................... | 53 |
| 3.4-§ | Ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishni ko‘rishda ishtirok etuvchi shaxslarga chaqiruv qog‘ozi namunasi........ | 54 |
| 3.5-§ | Ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atilgan shaxsning ishni ko‘rib chiqish muddatini kechiktirish haqidagi iltimosnoma namunasi......................................... | 55 |
| 3.6-§ | Ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishni ko‘rib chiqish bayonnomasining namunasi ............................................... | 56 |
| 3.7-§ | Huquqbuzarlikning kam ahamiyatliligi sababli huquqbuzarni ma’muriy javobgarlikdan ozod qilish haqida taqdimnoma namunasi..................................................... | 57 |
| 3.8-§ | Engilroq ma’muriy jazo chorasini qo‘llash haqida taqdimnoma namunasi...................................................... | 58 |
| 3.9-§ | Ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ish yuzasidan qaror namunasi......................................................................... | 59 |
| 3.10-§ | Mamuriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ish yuzasidan chiqarilgan qaror nusxasini olish to‘g‘risida iltimosnoma namunasi......................................................................... | 61 |
| 3.11-§ | Mamuriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ish yuzasidan chiqarilgan qaror nusxasini olganlik haqida tilxat namunasi......................................................................... | 62 |
| 3.12-§ | Ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ish yuzasidan chiqarilgan qaror nusxasini yuborish haqidagi xat namunasi......................................................................... | 63 |
| 3.13-§ | Ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ish yuzasidan qaror nusxasini huquqbuzar ishlab yoki o‘qib turgan joydagi ma’muriyat e’tiboriga etkazish haqidagi xat namunasi......... | 64 |

3.14-§ Ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ish yuzasidan qaror nusxasini ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risida bayonnoma tuzgan mansabdor shaxsning e’tiboriga etkazish haqidagi xat namunasi…….............................................................. 65
3.15-§ Ma’muriy huquqbuzarlik sodir etish sabablari va unga olib kelgan shart-sharoitni bartaraf etish to‘g‘risida taqdimnoma namunasi........................................................................ 66
**IV-BOB. BOJXONA SOHASIDAGI MA’MURIY HUQUQBUZARLIK TO‘G‘RISIDAGI ISH YUZASIDAN CHIQARILGAN QAROR XUSUSIDA SHIKOYAT BERISH VA PROTEST BILDIRISH…… 67**
4.1-§ Bojxona sohasidagi ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ish yuzasidan chiqarilgan qaror xususida shikoyat berish va protest bildirish bo’yicha asosiy qoidalar.......................................................................... 67
4.2-§ Ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ish yuzasidan chiqarilgan qaror xususida shikoyat namunasi...................... 70
4.3-§ Uzrli sabablarga ko‘ra o‘tkazib yuborilgan ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ish yuzasidan chiqarilgan qaror xususida shikoyat berish muddatini qayta tiklash to‘g‘risida ariza namunasi.................................................................... 71
4.4-§ Uzrli sabablarga ko‘ra o‘tkazib yuborilgan ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ish yuzasidan chiqarilgan qaror xususida shikoyat berish muddatini qayta tiklash haqida qaror namunasi................................................................... 72
4.5-§ Ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ish yuzasidan chiqarilgan qaror xususida berilgan shikoyat (protest)ni kassatsiya instansiyasida ko‘rib chiqish haqidagi bayonnoma namunasi....................................................... 73
4.6-§ Ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ish yuzasidan chiqarilgan qaror xususida berilgan shikoyat (protest)ni ko‘rib chiqish natijasi bo‘yicha hal qiluv qarori namunasi........................................................................ 74
4.7-§ Ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ish yuzasidan chiqarilgan qaror xususida berilgan shikoyat (protest)ni ko‘rib chiqish natijasi bo‘yicha hal qiluv qarori nusxasini olish to‘g‘risida iltimosnoma namunasi.............................. 75
4.8-§ Ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ish yuzasidan chiqarilgan qaror xususida berilgan shikoyat (protest)ni ko‘rib chiqish natijasi bo‘yicha hal qiluv qarori nusxasini

yuborish haqida xat namunasi............................................ 76
**V-BOB. BOJXONA SOHASIDAGI MA'MURIY JAZO QO'LLASH TO'G'RISIDAGI QARORLARNI IJRO ETISH………….……......................................................... 77**
5.1-§ Bojxona sohasidagi ma'muriy jazo qo'llash to'g'risidagi qarorlarni ijro etish bo'yicha asosiy qoidalar........................ 77
5.2-§ Jarima solish tarzidagi ma'muriy jazoni qo'llash to'g'risidagi qaror ijrosini kechiktirish haqida qaror namunasi................................................................................ 80
5.3-§ Jazo qo'llash to'g'risidagi qaror ijrosini tugatish haqida qaror namunasi ....................................................................... 81
5.4-§ Jarima solish haqidagi qarorni majburiy ijro etish uchun yuborish xati namunasi........................................................ 82
5.5-§ O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining Yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali qayd etilgan huquqbuzarliklar uchun shaxslarning ma'muriy javobgarligi.......................................................................... 83
5.6-§ O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining Yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali qayd etilgan huquqbuzarliklar bo'yicha jarima solish to'g'risidagi qaror namunasi................................................ 90
**XULOSA........................................................................ 92**
**Bojxona sohasidagi ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish yuritish sohasini tartibga soluvchi asosiy normativ-huquqiy hujjatlar ro'yxati.................... 93**

# KIRISH

Huquqni muhofaza qilish organlarining zamonaviy tizimida O‘zbekiston Respublikasi bojxona organlari alohida o‘rin tutadi. Boshqa ma’muriy va yurisdiksiyaviy ish yuritish singari ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha ish yuritish ham majburlash choralarini qo‘llash bilan uzviy bog‘liq. Ma’muriy huquqbuzarliklarning aniqlangan, boshlangan va tekshirilgan holatlari doirasi juda keng bo‘lib, bojxona organlarning mansabdor shaxslardan turli sohalarda keng bilimga ega bo‘lishni talab qiladi, turli ekspertizalarni belgilash va ekspertga tegishli savollar berish, tovarlar chiqarishni to‘xtatib turish, tekshirish muddatini uzaytirish va bojxona nazorati shaklini qo‘llash kabilarni aytish mumkin.

Ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha ish yuritish Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning (MJtK) normalari bilan tartibga solinadi va bojxona organlari mansabdor shaxslarining ma’muriy-protsessual faoliyati hisoblanadi. Ma’muriy huquqbuzarlik holatlari bo‘yicha ish yuritish javobgarlikka tortish amaliyotining ma’lum bir birligini kafolatlaydi.

Huquqbuzarlik faktini va uni sodir etgan shaxsning aybini isbotlash uchun faqat dalillar majmui asosidagina amalga oshirish lozim bo‘ladi. Ma’muriy huquqbuzarlik sodir etishda aniqlashtiriladigan holatlar yig‘indisi isbotlash predmetini tashkil etadi. Bojxona sohasiga oid huquqbuzarliklarni ma’muriy tarzda tekshiruvni o‘tkazish odatda uchta alohida bosqichdan iborat: dastlabki, keyingi va yakuniy.

Dastlabki bosqichda muayyan shaxs tomonidan ma’muriy huquqbuzarlik sodir etish haqidagi tusmolni (versiyani) ilgari surish uchun asos bo‘lgan ma’lumotlarni olish uchun dalillarni qidirish, aniqlash va mustahkamlash kerak zarur. Harakatlar (*harakatsizlik*)ning mohiyati va xarakteri tajovuz ob’ektini va muayyan turdagi huquqbuzarlikni sodir etish usuli tarkibining ob’ektiv tomoni bilan belgilanishi mumkin.

Tipik harakatlar (*harakatsizlik*) tegishli obektlarda ushbu turdagi huquqbuzarlikka xos izlarning paydo bo‘lishiga olib keladi. Tekshiruv jarayonida ushbu izlar maqsadli ravishda izlanishi kerak, so‘ngra haqiqatni aniqlash maqsadida tekshirilishi va foydalanish kerak. Qonunda belgilangan tartibda biriktirilgan va tekshiruvlar jarayonida

tekshirilayotgan huquqbuzarlikning xarakterli izlari ishda dalillarni shakllantiradi.

Dalillarni to‘plash protsessual harakatlarni ishlab chiqarish orqali amalga oshiriladi. Ish yuritilayotgan shaxsga, uning qonuniy vakiliga, himoyachisiga va vakiliga nisbatan dalillar ham keltirilishi mumkin. Muayyan turdagi ma’muriy huquqbuzarlikni sodir etishda iz hosil qilish mexanizmi va bunday izlarni to‘plash, tadqiq qilish va ulardan foydalanish uchun muayyan protsessual harakatlar imkoniyatini bilib, ushbu turdagi huquqbuzarliklarni tekshiruvni o‘tkazish uchun majburiy bo‘lgan harakatlarning ma’lum ro‘yxatini tuzishingiz mumkin.

MJtKda bojxona organlari tasarrufidagi o‘nlab ma’muriy huquqbuzarliklar nazarda tutilgan. Bu huquqbuzarliklar, odatda, turli bojxona operatsiyalari – tovarlar deklaratsiyasi, tovarlarni vaqtincha saqlash omboriga joylashtirish paytida va boshqa holatlarda sodir etiladi. Bojxona ishi sohasidagi huquqbuzarliklarning barcha turlari bir umumiy xususiyatga birlashtirilgan – ular O‘zbekiston Respublikasining bojxona huquqi normalari bilan tartibga solinadigan jamoatchilik munosabatlariga tajovuz qiladi.

Ko‘pgina moddalarda huquqbuzarlikning muqobil elementlari mavjud. Jumladan, MJtKning $227^1$-moddasi “Bojxona chegarasini kesib o‘tganlik to‘g‘risida yoki tovarlar va transport vositalarini O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan tashqariga olib chiqish maqsadi to‘g‘risida bojxona organiga xabar berish tartibini buzish” ma’muriy huquqbuzarligining jismoniy shaxslar uchun sub’ektiv tomoni qasddan yoki ehtiyosizlik oqibatida ifodalanishi mumkin. YUridik shaxs (uning mansabdor shaxsi) esa bojxona chegarasidan tovarlar va transport vositalarini ko‘chirish tartibiga rioya qila olgan lekin unga bog‘liq bo‘lgan barcha choralarni ko‘rmagan bo‘lsa, ma’muriy huquqbuzarlik sodir etganlikda aybdor deb topiladi.

Jismoniy shaxslar ushbu modda bo‘yicha quyidagi harakatlari uchun ma’muriy javobgarlikka tortilishi mumkin:

- tovarlar va transport vositalarini O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududiga olib kirish chog‘ida O‘zbekiston Respublikasi bojxona chegarasini kesib o‘tganlik to‘g‘risida yoki tovarlar va transport vositalarini O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan tashqariga olib chiqish maqsadi to‘g‘risida bojxona organiga xabar bermaslik;

• tovarlar va transport vositalarini O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududidan tashqariga olib chiqish maqsadi to‘g‘risida bojxona organiga noto‘g‘ri xabar berish, agar bunday xabar bojxona organi tomonidan belgilangan tartibda ro‘yxatga olingan bo‘lsa, xuddi shuningdek tovarlar va transport vositalarini belgilangan joyga hamda belgilangan vaqtda etkazib bermaslik. Bojxona ishi sohasida ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishni qo‘zg‘atish va ish yuritishni boshlash uchun ma’muriy huquqbuzarlik belgilarini o‘z ichiga olgan shaxs tomonidan sodir etilgan qilmish hisoblanadi. Ma’muriy tarzda tekshiruvning boshlanishi huquqbuzarlik belgilariga ega bo‘lgan qilmish haqida ma’lumot olish, ya’ni protsessual asosning mavjudligi.

Bojxona ishi sohasida ma’muriy huquqbuzarlik sodir etilgan hollarda ish yuritish va ularni ko‘rib chiqish MJtKda belgilangan protsessual harakatlar tizimidir. Bojxona organlari faoliyatida MJtKni qo‘llash amaliyoti bir qator muammolarni ko‘rsatib berishga imkon beradi.

Xususan, ma’muriy huquqbuzarlik holatlarini aniqlash, boshlash va tekshiruvlarni o‘tkazish huquqbuzarlik sub’ekti bo‘lmagan taqdirda ko‘pincha ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishni yuritish zarurligi ham muhim masala bo‘lib hisoblanadi. Bojxona sohasidagi ma’muriy huquqbuzarliklar holatlarida isbotlashning o‘ziga xosligi bojxona organlarining ma’muriy tekshiruvni amalga oshirishdagi muayyan faoliyati bilan bog‘liq hujjatlarning katta hajmi bilan tavsiflanadi, bu hujjatlar asosan, dalillar manbai sifatida foydalaniladigan turli xil protsessual hujjatlar hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, ma’muriy huquqbuzarliklar bo‘yicha ish yuritishning qonuniyligini ta’minlash hamda bojxona organlarining ma’muriy amaliyot faoliyatini takomillashtirish zarur bo‘ladi.

# I-BOB. BOJXONA SOHASIDAGI MA’MURIY HUQUQBUZARLIK FAKTINI RASMIYLASHTIRISH JARAYONI

## 1.1-§ Bojxona sohasidagi ma’muriy huquqbuzarlik holatlarini rasmiylashtirishning asosiy qoidalari

Bugungi kunda ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risida ishlarni yuritishning asosiy qoidalari O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksida batafsiz yoritib berilgan. SHu bois, ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risida ishlarni yuritish vakolati berilgan har bir mansabdor shaxs, ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risida ishlarni yuritishning asosiy qoidalarini mukammal bilishi va o‘z xizmat faoliyatida ushbu qoidalarga qat’iy amal qilishi lozim. Quyida e’tiboringizga vakolatli mansabdor shaxslar tomonidan ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlarni yuritish davomida amal qilinishi lozim bo‘lgan asosiy qoidalar to‘g‘risida ma’lumot berib o‘tiladi.

**Buni bilish kerak !**

**Ma’muriy huquqbuzarlik** – bu qonunchilikka binoan ma’muriy javobgarlikka tortish nazarda tutilgan, shaxsga, fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, mulkchilikka, davlat va jamoat tartibiga, tabiiy muhitga tajovuz qiluvchi g‘ayrihuquqiy, aybli (*qasddan yoki ehtiyotsizlik orqasida*) sodir etilgan harakat yoki harakatsizlikdir.

**E’tibor bering !**

Quyidagi harakat yoki harakatsizlik ya’ni:

1) g‘ayrihuquqiy;

2) aybli (*qasddan yoki ehtiyotsizlik orqasida*);

3) shaxsga, davlat va jamoat tartibiga, mulkchilikka, fuqarolarning huquklari va erkinliklariga, tabiiy muhitga tajovuz qilish;

4) qonun hujjatlarida aynan ma’muriy javobgarlik nazarda tutilgan holatlar huquqbuzarlik deb e’tirof etiladi. Bu tushuncha ma’muriy huquqbuzarliklarning yuridik belgilariga ega bo‘lib, jamiyatga, davlatga va fuqarolarga, korxonalarga, muassasalarga va tashkilotlarga zarar etkazishni ko‘rsatib o‘tish yo‘li bilan ularga ijtimoiy tavsif beradi.

Ma’muriy hukuqbuzarlik deb shunday g‘ayrihuquqiy xatti-harakat

tushuniladiki, uni sodir qilganlik uchun qonunchilikda javobgarlik nazarda tutilgan, lekin bu javobgarlik boshqa biron bir javobgarlik (jinoiy, intizomiy, moddiy va hokazolar emas, balki ma'muriy javobgarlikdir), hamma uchun majburiy bo'lgan qoidalarning barchasi ham ma'murii javobgarlik bilan muhofaza qilinavermasligi hisobga olinishi lozim.

Bir jihatga e'tiborni qaratish lozim bo'ladi, MJtKning 278-moddasiga (Materiallarni prokurorga topshirish) muvofiq basharti ishni ko'rib chiqish paytida organ (*mansabdor shaxs*) huquqbuzarlik holatida jinoyat alomatlari bor degan xulosaga kelsa, materiallarni prokurorga topshiradi.

MJtKning 278-moddasida organ (*mansabdor shaxs*) ishni ko'rib chiqish paytida huquqbuzarlikda jinoyat alomatlari bor, degan xulosaga kelgan holatlarni o'z ichiga oladi. Materiallar huquqbuzarlikda Jinoyat kodeksining (JK) 14-moddasi va maxsus qismidagi tegishli moddalar alomatlari bo'lgan hollarda prokurorga topshirilishi mumkin. Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi materiallar jinoiy ish qo'zg'ash, tergov harakatlari olib borish va shaxsni ishda aybdor sifatida tan olish haqidagi masalani hal etish uchun prokurorga topshirish bilan ma'muriy ish yuritish to'xtatilmaydi. Ma'muriy jazo olganlikning mavjudligi ham materiallarni prokurorga topshirish haqida qaror qabul qilishga asos bo'ladi.

MJtKning 279-moddasiga (Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi bayonnomani tuzish) muvofiq bayonnoma, huquqbuzarlik sodir etilgan joyning o'zida ma'muriy jazo qo'llanadigan hollardan tashqari, barcha huquqbuzarliklar sodir etilganligi fakti qayd etilgan yagona hujjat hisoblanadi. Ma'muriy huquqbuzarlik sodir etilganligi to'g'risidagi bayonnoma vakolatli mansabdor shaxs tomonidan tuziladi. Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risida bayonnoma tuzish huquqi tekshiruv va nazoratni amalga oshiruvchi organ (*mansabdor shaxs*) vazifasidan kelib chiqadi. Davlat organiga tekshirish-nazorat vazifasini amalga oshirishni yuklash (*uning, xodimlari*) ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etgan holatlarda bu haqda bayonnoma tuzish huquqiga ega degan ma'noni bildiradi. MJtKning 280-moddaga (Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risida bayonnoma tuzishga vakolati bo'lgan shaxslar) muvofiq buzilishi ma'muriy javobgarlikni keltirib chiqaradigan qoidalarga rioya etilishini

tekshirish va nazorat qilish qonunchilik bilan zimmasiga yuklatilgan tegishli organning vakolatli mansabdor shaxsi ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi bayonnomani tuzadi. MJtKning 281-moddasiga (Ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi bayonnomaning mazmuni) binoan, ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi bayonnomada: shu bayonnoma tuzilgan sana va joy, bayonnomani tuzgan shaxsning lavozimi, familiyasi, ismi, otasining ismi; huquqbuzarning shaxsiga oid ma’lumotlar; ma’muriy huquqbuzarlik sodir etilgan joy, vaqt va bu huquqbuzarlikning mohiyati, ana shunday huquqbuzarlik uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi normativ hujjat; agar guvohlar va jabrlanuvchilar bo‘lsa, ularning familiyalari va yashash manzillari; huquqbuzarning tushuntirishi; ishni hal qilish uchun zarur bo‘lgan boshqa ma’lumotlar ko‘rsatiladi. Basharti huquqbuzarlik tufayli moddiy zarar etkazilgan bo‘lsa, bu ham bayonnomada ko‘rsatiladi. Bayonnoma uni tuzgan shaxs va ma’muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxs tomonidan imzolanadi; guvohlar va jabrlanuvchilar bo‘lgan taqdirda esa – bayonnoma mazkur shaxslar tomonidan ham imzolanadi.

Huquqbuzarlik sodir etgan shaxs bayonnomani imzolashdan bosh tortgan taqdirda, bayonnomaga bu haqda yozib qo‘yiladi. Huquqbuzarlik sodir etgan shaxs bayonnomaning mazmuni yuzasidan bayonnomaga ilova qilinadigan tushuntirish va mulohazalarini berishga, shuningdek mazkur bayonnomaga imzo chekishdan bosh tortish sabablarini bayon etishga haqlidir. Bayonnomani tuzish vaqtida huquqbuzarga MJtKning 294-moddasida nazarda tutilgan uning huquq va burchlari tushuntiriladi va bu xususda bayonnomaga yozib qo‘yiladi. Shuningdek, ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi bayonnoma ishning mohiyatini diqqat bilan ko‘rib chiqish va u haqda asosli qaror qabul qilish imkoniyatini beradigan huquqbuzarlik va huquqbuzarning shaxsi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni qayd etgan hujjati hisoblanadi. Shuning uchun MJtKning 281-moddasida ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi bayonnomada aks etishi albatta lozim bo‘lgan ma’lumotlar belgilab berilgan. Ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi bayonnomada shu bayonnoma tuzilgan sana, bayonnoma tuzgan shaxsning lavozimi, familiyasi, ismi, otasining ismi ko‘rsatiladi. Bayonnomaga ishni to‘g‘ri ko‘rib chiqish uchun muhim hisoblangan huquqbuzarlikning shaxsiga oid ma’lumotlar – familiyasi, ismi, ota ismi, tug‘ilgan yili va joyi (*voyaga etmagan shaxslar xususida tug‘ilgan kuni,*

*oyi va yili*), ish va yashash manzili, lavozimi, ish haqining miqdori (*nafaqa, stipendiya*) oilaviy ahvoli, qaramog‘idagi shaxslar soni, shuningdek, ilgari ma’muriy javobgarlikka tortilgani-tortilmagani to‘g‘risidagi ma’lumotlar kiritiladi. Huquqbuzarning shaxsiyati haqidagi barcha ma’lumotlar uning yonida bo‘lgan hujjatlar bo‘yicha yoki boshqa usul bilan, masalan, ish yoki yashash joyiga telefon qilib, aniqlanadi. Muhimi huquqbuzarning shaxsiyati aniq belgilanishidadir.

Bayonnomada huquqbuzarlik qayerda, qachon sodir etilgani, aynan qaysi harakatda (*harakatsizlikda*) ifodalangani ko‘rinib turishi uchun ma’muriy huquqbuzarlik sodir etilgan joy, vaqt va bu huquqbuzarlikning mohiyati ko‘rsatiladi. MJtKning 281-moddasi bayonnomada, agar guvoh va jabrlanuvchi bo‘lsa, ularning familiyalari va manzillarini ko‘rsatishni ko‘zda tutadi.

Ushbu huquqbuzarlik uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi me’yoriy hujjat sifatida, odatda, MJtKning Maxsus qismi ko‘rsatiladi. Agar shunday javobgarligi bo‘lgan me’yoriy hujjat Kodeksda belgilangan tartibga hali kiritilmagan, bevosita qo‘llanilayotgan bo‘lsa, shu hujjatning tegishli moddasiga havola qilinishi lozim. Odatda bayonnomalar shakli MJtKning 281-moddasida ko‘rsatilgan talablarga mos keladigan tarzda oldindan bosmada tayyorlangan blankalarda tuziladi. Agar huquqbuzarlik tufayli moddiy zarar etkazilgan bo‘lsa, bu ham bayonnomada yoki unga ilova qilingan hujjatlarda ko‘rsatib o‘tiladi. Bayonnoma tuzgan shaxs va ma’muriy huquqbuzarlikni sodir etgan shaxs tomonidan imzolanadi, guvohlar va jabrlanuvchilar bo‘lgan taqdirda esa – mazkur shaxslar tomonidan ham imzolanadi. Huquqbuzarlik sodir etgan shaxs bayonnomaning mazmuni bo‘yicha bayonnomaga ilova qilinadigan tushuntirish va mulohazalarini berishga, shuningdek, mazkur bayonnomaga imzo chekishdan bosh tortish sabablarini bayon etishga haqdidir. Huquqbuzar bayonnomaga imzo chekishdan bosh tortgan taqdirda.bu haqda bayonnomaga yozib qo‘yiladi. Bayonnomani tuzish vaqtida huquqbuzarga MJtKning 294-moddasida nazarda tutilgan huquq va burchlari tushuntiriladi va bu xususda bayonnomaga yozib qo‘yiladi. Bayonnomani tuzish vaqtida ma’muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxs o‘ziga tegishli bo‘lgan huquqlardan foydalanishga haqlidir. Masalan, ishni ko‘rib chiqishga tayyorlanish (MJtK 303-modda) yoki uni hal qilish vaqtida ko‘rib

chiqiladigan iltimosnoma berishi mumkin.

MJtKning 282-moddasiga (Ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi bayonnomani jo‘natish) muvofiq bayonnoma boshqa hujjatlar va ish bo‘yicha ashyoviy dalillar bilan birga huquqbuzarlik sodir etilgan yoki aniqlangan paytdan boshlab bir sutkadan kechiktirmay ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqish vakolatiga ega bo‘lgan organ (*mansabdor shaxs*)ga yuboriladi.

**Bu juda muhim !**

**Ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi bayonnomaga quyidagilar ilova qilinadi:**

1) ma’muriy javobgarlikka tortilayotgan shaxsning shaxsini tasdiqlovchi hujjatning ko‘chirma nusxasi;

2) ichki ishlar organlarining ma’muriy javobgarlikka tortilayotgan shaxsning ilgari ma’muriy javobgarlikka tortilganligi fakti mavjudligi yoki mavjud emasligi to‘g‘risidagi ma’lumotnomasi;

3) ma’muriy javobgarlikka tortilayotgan shaxsning tushuntirishi;

4) jabrlanuvchining, guvohlarning ko‘rsatuvlari, ekspertning xulosasi, agar ular mavjud bo‘lsa;

5) ma’muriy huquqbuzarlik sodir etilganligi faktini tasdiqlovchi boshqa materiallar.

Ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risida bayonnoma tuzilib, boshqa hujjatlar va ashyoviy dalillar to‘planganidan keyin ular bir sutkadan kechiktirilmay, ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqish vakolatiga ega bo‘lgan organ (*mansabdor shaxsga*)ga yuboriladi. Ko‘pincha xodimlari bayonnomani tuzgan organning rahbari bayonnomani yo‘llash haqida qaror qabul qiladi.

Ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlarni turli mansabdor shaxslar ko‘rib chiqish huquqiga ega bo‘lgan taqdirda, keyingilarning o‘zlari bayonnomani ko‘rib chiqish yoki ma’muriy jazo qo‘llash bo‘yicha kattaroq huquqqa ega bo‘lgan mansabdor shaxslarga yuborish huquqiga ega. Bayonnomani vakolatli organ (*mansabdor shaxs*)ga yuborish vaqtida Kodeksning ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlar ko‘rib chiqiladigan joy haqidagi talabni o‘rnatuvchi me’yorlari hisobga olinadi.

MJtKning 284-moddasiga (Huquqbuzarni ushlab keltirish) muvofiq, ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risida bayonnoma tuzish maqsadida, agar bayonnoma tuzish shart bo‘lib, uni joyning o‘zida tuzishning imkoni bo‘lmasa, ichki ishlar organi xodimi yoki ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risida bayonnoma tuzishga vakolatli boshqa shaxs huquqbuzarni ichki ishlar organiga yoxud fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi binosiga keltirishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlarni yuritishda O‘zbekiston Respublikasi MJtKda o‘rnatilgan asosiy qoidalarni ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlarni yuritish vakolatiga ega bo‘lgan barcha mansabdor shaxslar bilishi va unga amal qilishi muhim hisoblanadi.

**O‘zingizni sinab ko‘ring !!!**

1. Ma’muriy xuquqbuzarlik deganda nimani tushunasiz?
2. Ma’muriy xuquqbuzarlikning asosiy belgilarini aytib bering?

## 1.2-§ Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi bayonnoma namunasi

**B A YO N N O M A № __________**
**aniqlangan huquqbuzarlik to'g'risida**

20___ yil "____" __________ ______________shahar (tuman)

Men, ____________________________________________________________
(bayonnoma tuzgan shaxsning lavozimi, unvoni, familiyasi, ismi va sharifi)
______________________________________________________________________
______________________________________________________________________

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi (MJtK) 279-281-moddalari talablariga rioya qilgan holda,

1. ______________________________________________________________
(F.I.SH, yashash joyi, agar bo'lsa pasport seriya-raqami va telefon №)
______________________________________________________________________

2. ______________________________________________________________
(F.I.SH, yashash joyi, agar bo'lsa pasport seriya-raqami va telefon №)
____________________________________________________

yashovchi guvohlar (xolislar) ishtirokida, ularga MJtKning 298-moddasida ko'rsatilgan huquq va majburiyatlari tushuntirilgan holda.

1. ____________________ (imzo) 2. ____________________ (imzo)

Tarjimon ______________________________________________________
(F.I.SH, yashash va ish joyi, telefon №, agar huquqbuzar tarjimon yordamiga
______________________________________________________________________
muxtoj bo'lmasa, bu haqda tegishli yozuv kiritib, huquqbuzar imzosi bilan tasdiqlanadi)

qatnashuvida, unga MJtKning 300-moddasida ko'rsatib o'tilgan majburiyatlari tushuntirilgan holda.

______________________________
(imzo)

MJtKning ________-moddasi ____-qismi, ________-moddasi ____-qismi, ______-moddasi ____-qismida ko'rsatib o'tilgan huquqbuzarlikni sodir etgan:

1. F.I.SH.:______________________________________________________
2. Tug'ilgan sanasi va joyi:_______________________________________
3. Millati:______________________________________________________
4. Fuqaroligi:___________________________________________________
5. Ma'lumoti:____________________________________________________
6. Yashash joyi:_________________________________________________
______________________________________________________________________
7. Ish joyi va lavozimi:___________________________________________
______________________________________________________________________
8. Oilaviy axvoli:________________________________________________
9. STIRi:________________________________________________________
10. SHaxsini tasdiqlovchi hujjat:_____________________________________
(pasport yoki boshqa shaxsini tasdiqlovchi hujjat raqami,
__________________________________________________________ga
kim tomonidan va qachon berilgan)

nisbatan mazkur bayonnomani tuzdim.

Huquqbuzarlik sodir etgan shaxsga MJtKning 294-moddasida ko'rsatilgan huquq

va burchlari to‘liq tushuntirildi, ya’ni:

MJtKning 294-moddasi. Ma’muriy javobgarlikka tortilayotgan shaxs ish materiallari bilan tanishib chiqishga, izohlar berishga, dalillar keltirishga, o‘z iltimosini bayon etishga, ishni ko‘rib chiqish vaqtida advokatning yuridik yordamidan foydalanishga, o‘z ona tilida so‘zlashga va tarjimonning xizmatlaridan foydalanishga, ish yuzasidan chiqarilgan qaror ustidan shikoyat berishga haqlidir.

Ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ish ma’muriy javobgarlikka tortilayotgan shaxs ishtirokida ko‘rib chiqiladi. Mazkur shaxsga ishni ko‘rib chiqish joyi va vaqti haqida xabar qilinganligi to‘g‘risida ma’lumotlar bo‘lgan va undan ishni ko‘rib chiqishni kechiktirish xususida hech qanday iltimos tushmagan hollarda, shuningdek ushbu Kodeks $309^1$-moddasining birinchi qismida nazarda tutilgan hollardagina ish uning ishtirokisiz ko‘rib chiqilishi mumkin.

Basharti sodir etgan huquqbuzarligi uchun ushbu Kodeksda ma’muriy qamoqqa olish, ashyolarini musodara qilish yoki haqini to‘lash sharti bilan olib qo‘yish choralarini qo‘llanish nazarda tutilgan bo‘lsa, ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqish vaqtida ma’muriy javobgarlikka tortilayotgan shaxsning qatnashishi shart. Mazkur shaxs bunday ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishni ko‘rib chiqishda qatnashishdan bo‘yin tovlagani taqdirda u ma’muriy sudning ajrimiga binoan ichki ishlar organi tomonidan majburan olib kelinishi mumkin. Eksport qilinishi man etilgan buyumlar va mahsulot O‘zbekiston Respublikasidan tashqariga olib chiqib ketilishi bilan bog‘liq bo‘lib, musodara chorasi qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi ish alohida hollarda, agar ma’muriy javobgarlikka tortilayotgan shaxs O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida bo‘lsa yoki uning qaerdaligini aniqlashning iloji bo‘lmasa, ma’muriy javobgarlikka tortilayotgan shaxsning ishtirokisiz ko‘rib chiqiladi.

MJtKning 294-moddasida ko‘rsatilgan huquq va burchlarim bilan to‘liq tanishdim. Men, advokatning yuridik yordamidan foydalanishni

______________________________________________

(xohlayman yoki xohlamayman, huquqbuzarlik sodir etgan shaxsning F.I.SH. va imzosi)

**V o q e a t a f s i l o t i :**

______________________________________________

(huquqbuzarlik sodir qilingan kun, vaqti va joyi

______________________________________________

huquqbuzarlik holati uchun ahamiyatli barcha holatlar)

______________________________________________
______________________________________________
______________________________________________
______________________________________________
______________________________________________
______________________________________________
______________________________________________
______________________________________________
______________________________________________
______________________________________________
______________________________________________
______________________________________________
______________________________________________
______________________________________________
______________________________________________
______________________________________________
______________________________________________
______________________________
______________________________________________

MJtKning 290-moddasiga binoan quyidagilar ish materiali ko‘rib chiqilgunga qadar vaqtincha saqlovga olindi.

| № | olingan har bir ashyo va hujjatning nomi, uning o‘ziga xos belgilari | miqdori |
|---|---|---|
| 1 | | |
| 2 | | |
| 3 | | |
| 4 | | |
| 5 | | |
| 6 | | |

| | | |
|---|---|---|
| 7 | | |
| 8 | | |
| 9 | | |
| 10 | | |

______________________________________________________

(olingan TMB turi va hujjatlar soni koʻp boʻlgan taqdirda ish varaqlarini soni koʻrsatilgan holda bayonnomaga ilova qilinadi)

Huquqbuzarlik sodir etgan shaxsning tushuntirishi _______________ (tushuntirish xati alohida

______________________________________________________

olingan boʻlsa koʻrsatib oʻtiladi, agar tushuntirish berishdan bosh tortgan boʻlsa, bu haqda yozib qoʻyiladi)

__________________________________________________________________________

__________________________________________________________________________

_______________________________________________________________________

Bayonnoma ishtirokchilarga oʻqib eshittirildi va tanishib chiqish uchun taqdim etildi. Ishtirokchilar tomonidan qoʻshimcha va e’tirozlar

______________________________________________________

(kim tomonidan, qanday qoʻshimcha va e’tirozlar bildirildi)

______________________________________________________

Guvohlar (xolislar): 1. ________________ /_______________________________
(imzo) (F.I.SH)

2. ________________ /_______________________________
(imzo) (F.I.SH)

Tarjimon: ________________________ /_______________________________
(imzo) (F.I.SH)

Huquqbuzarlik sodir etgan shaxs: ________________________ /_______________________________
(imzo) (F.I.SH)

Advokat: ________________________ /_______________________________
(imzo) (F.I.SH)

Bayonnoma tuzuvchi: ____________________ /_______________________________
(imzo) (F.I.SH)

Ishtirokchilar: ____________________ /_______________________________
(imzo) (F.I.SH)

____________________ /_______________________________
(imzo) (F.I.SH)

## 1.3-§ Huquqbuzarning tushuntirish xati namunasi

________________________________
________________________________
________________________________
________________________________
_______________________________

**T U SH U N T I R I SH  X A T I**

**1.F.I.SH.______________________________________________________**
**2.Tug‘ilgan kuni, oyi, yili___________________________________________**
**3.Tug‘ilgan joyi____________________________________________________**
**4.Fuqaroligi______________________________________________________ 5.Millati________________________________________________________**
**6.Ma’lumoti______________________________________________________**
**7.Oilaviy ahvoli__________________________________________________**
**8.Ish joyi va lavozimi ______________________________________________**
**9.Yashash joyi__________________________________________________________________________________________________________________**
**10. Shaxsini tasdiqlovchi hujjat (pasport)_________________________________________________________________________________________________**
**11.Sudlanganligi__________________________________________________**
**12. Ruhiy kasalliklar shifoxonasida ro‘yxatda______________________________**
**13. Telefon raqami______________________________________________________**
**14. INN________________________. 15. OKPO________________________________**

**Men, o‘z tushuntirishlarimni ___________ tilida,________________________ alifbosida bayon qilishni xoxlayman_________________________________________**

**Menga O‘zbekiston Respublikasi MJtKning 294-moddasida (*Ma’muriy javobgarlikka tortilayotgan shaxsning huquq va burchlari):*** *Ma’muriy javobgarlikka tortilayotgan shaxs ish materiallari bilan tanishib chiqishga, izohlar berishga, dalillar keltirishga, o‘z iltimosini bayon etishga, ishni ko‘rib chiqish vaqtida advokatning yuridik yordamidan foydalanishga, o‘z ona tilida so‘zlashga va tarjimonning xizmatlaridan foydalanishga, ish yuzasidan chiqarilgan qaror ustidan shikoyat berishga haqlidir.*

*Ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ish ma’muriy javobgarlikka tortilayotgan shaxs ishtirokida ko‘rib chiqiladi. Mazkur shaxsga ishni ko‘rib chiqish joyi va vaqti haqida xabar qilinganligi to‘g‘risida ma’lumotlar bo‘lgan va undan ishni ko‘rib chiqishni kechiktirish xususida hech qanday iltimos tushmagan hollardagina ish uning ishtirokisiz ko‘rib chiqilishi mumkin.*

*Basharti sodir etgan huquqbuzarligi uchun ushbu Kodeksda ma'muriy qamoqqa olish, ashyolarini musodara qilish yoki haqini to'lash sharti bilan olib qo'yish choralarini qo'llanish nazarda tutilgan bo'lsa, ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish vaqtida ma'muriy javobgarlikka tortilayotgan shaxsning qatnashishi shart. Mazkur shaxs bunday ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni ko'rib chiqishda qatnashishdan bo'yin tovlagani taqdirda u ma'muriy ishlar bo'yicha sudyaning ajrimiga binoan ichki ishlar (militsiya) organi tomonidan majburan olib kelinishi mumkin. Eksport qilinishi man etilgan buyumlar va mahsulot O'zbekiston Respublikasidan tashqariga olib chiqib ketilishi bilan bog'liq bo'lib, musodara chorasi qo'llanilishi mumkin bo'lgan ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi ish bojxona organi tomonidan alohida hollarda, agar ma'muriy javobgarlikka tortilayotgan shaxs O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida bo'lsa yoki uning qaerdaligini aniqlashning iloji bo'lmasa, ma'muriy javobgarlikka tortilayotgan shaxsning ishtirokisiz ko'rib chiqiladi.)* **ko'rsatilgan huquq va burchlarim bilan to'liq tanishdim. ________________________________Advokatning yuridik yordamidan foydalanishni (xoxlayman yoki xoxlamayman).**

**tarjimonning xizmatiga______________________.**

**Menga berilgan savollarga quyidagicha javob beraman:**

___________________________________________________________________
___________________________________________________________________
___________________________________________________________________
___________________________________________________________________
___________________________________________________________________

Tushuntirish xatini o'qib chiqdim, mening so'zimdan to'g'ri yozilgan. E'tiroz va qo'shimchalarim yo'q (yoki tushuntirish xatini o'z qo'lim bilan to'g'ri yozdim).

_________________________ _____________

*(tushuntirish beruvchining F.I.SH.)* *(imzo va sana)*

**Tushuntirish xatini oldim:**

_________________________ _____________

*(tushuntirish beruvchining F.I.SH.)* *(imzo va sana)*

## 1.4-§ Shaxsning avval ma’muriy javobgarlikka tortilganligini tekshirish to‘g‘risidagi talabnoma namunasi

**Shaxsning avval ma’muriy javobgarlikka tortilganligini tekshirish to‘g‘risida**
**TALABNOMA**

______-son 20__ yil “____” ______________
olinsin: pochta orqali/IIVda

1. Familiyasi: ____________________________________________________
2. Ismi: _________________________________________________________
3. Otasining ismi: _________________________________________________
4. Tug‘ilgan sanasi: ____yil “____” _______________
5. Yashash joyi: _______________________________________________________
6. Tekshirishning asosi: ______________________________________________
7. Davlat organi rahbari: _____________________________________________
*(F.I.SH., imzo)*
8. Bajaruvchi ________________________________________________________
*(F.I.SH., lavozimi)*
9. Jo‘natuvchining manzili: indeksi /__/__/__/__/__/__/

__________________ viloyati __________________ shahri
__________________ tumani __________________qishlog‘i
__________________ ko‘chasi ______________________-uy

Davlat organi ___________________________________________________
*(to‘liq nomi, qisqartirishlarsiz)*

“M.O‘.”
*(talabnomani jo‘natgan organ muhrining o‘rni)*

## 1.5-§ Ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi bayonnomani yuborish haqidagi xat na’munasi

20___ yil “___” __________ ___________________________________
____________________-son (material yuborilayotgan idora yoki mansabdor shaxs nomi)

**Ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi bayonnomani yuborish haqida**

Sizga _________________________________________________ ga nisbatan
*(huquqbuzarlik sodir etgan shaxsning F.I.SH. va turar joyi)*
O‘zbekiston Respublikasining MJtK _________-moddasi bo‘yicha to‘plangan hujjatlar MJtKning 282-moddasiga asosan mazmunan ko‘rib chiqish uchun yuborilmoqda.

Ilova: “____” varaqda.

________________________ ________ __________________
*(mansabdor shaxs lavozimi)* *(imzo)* *(F.I.SH.)*

## 1.6-§ Jinoyat alomatlari mavjudligi sababli ishni yuborish haqidagi xat na’munasi

20___ yil “____” __________ ________________________________
_____________________-son *(material yuborilayotgan prokuratura organi nomi)*

**Jinoyat alomatlari mavjudligi sababli ishni yuborish haqida**[1]

Sizga ________________________________________________________
*(MJtKning moddasi, huquqbuzarlik sodir etgan shaxsning F.I.SH. va turar joyi)*
nisbatan rasmiylashtirilgan ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ish materiallarida jinoyat alomatlari aniqlanganligi sababli O‘zbekiston Respublikasining MJtK 278-moddasiga asosan ko‘rib chiqish uchun yuborilmokda.

Ilova: “____” varaqda.

_______________________ ________ _________________
*(mansabdor shaxs lavozimi)* *(imzo)* *(F.I.SH.)*

---

[1] Идоранинг расмий бланкасида тайёрланади.

## II-BOB. BOJXONA SOHASIDAGI MA’MURIY HUQUQBUZARLIK TO‘G‘RISIDA ISH YURITISHNI TA’MINLASH CHORALARI

### 2.1-§ Bojxona sohasidagi ma’muriy huquqbuzarliklar to’g’risidagi ish yuritishni ta’minlashning asosiy qoidalari

Bojxona sohasidagi ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni to‘liq va har tomonlama yuritilishini ta’minlash har doim zarur va muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Buning ahamiyati shundaki, aniqlangan ma’muriy huquqbuzarlik holatlarini har tomonlama, xolisona tekshirish zarurati mavjud bo‘lib, bunda huquqbuzarlik fakti yuz bergan yoki yuz bermaganligini, unda kimdir aybdor yoki aybdor emasligini aniqlash, isbotlash, qonuniylikni va fuqarolarning buzilgan huquq va erkinliklarini tiklash, etkazilgan zararlarni qoplash kerak bo‘ladi. Ushbu maqsadlarga erishish uchun ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritishni ta’minlash choralarini qo‘llash zarur bo‘ladi. **Shu bois, e’tiboringizga quyidagi bojxona sohasidagi ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritishni ta’minlash choralari to‘g‘risida batafsil ma’lumot berib o‘tiladi:**

♦ ma’muriy yo‘l bilan ushlab turish;

♦ shaxsni ko‘rikdan o‘tkazish;

♦ ashyolarni ko‘zdan kechirish;

♦ transport vositalarini ushlab turish va ko‘zdan kechirish;

♦ ashyo va hujjatlarni olib qo‘yish;

♦ ekspertizalar tayinlash.

Ma’muriy huquqbuzarlikni to‘xtatish, huquqbuzarning shaxsini aniqlash, basharti, bayonnoma tuzish zarur bo‘lib, uni huquqbuzarlik sodir etilgan joyning o‘zida tuzish imkoni bo‘lmagan taqdirda, ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risida bayonnoma tuzish, ishlarning o‘z vaqtida va to‘g‘ri ko‘rib chiqilishini ta’minlash va ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlar yuzasidan chiqarilgan qarorlarni ijro etish maqsadida mazkur shaxsni ma’muriy yo‘l bilan ushlab turishga, shaxsan ko‘rikdan o‘tkazishga, uning ashyolari, transport vositalarini ko‘zdan kechirishga va ashyo hamda hujjatlarni olib qo‘yishga yo‘l qo‘yiladi.

MJtKning 286-moddasiga binoan ma’muriy yo‘l bilan ushlab turish to‘g‘risida bayonnoma tuzilib, unda: bayonnoma tuzilgan sana va joy, bayonnoma tuzgan shaxsning lavozimi, familiyasi, ismi, otasining ismi; ushlab turilgan shaxs haqidagi ma’lumotlar; uni ushlab turish vaqti, joyi va uning asoslari ko‘rsatiladi.

Bayonnoma uni tuzgan mansabdor shaxs va ushlab turilgan shaxs tomonidan imzolanadi. Ushlab turilgan shaxs bayonnomani imzolashdan bosh tortgan taqdirda, bayonnomaga shu haqda yozib qo‘yiladi. Ushlab turilgan shaxsning iltimosiga ko‘ra, u ushlab turilgan joy haqida uning qarindosh-urug‘lari, advokat, ish yoki o‘qish joyidagi ma’muriyat xabardor qilib qo‘yiladi. Voyaga etmagan shaxs ushlab turilgani haqida uning ota-onasi yoki ular o‘rnini bosuvchi shaxslar albatta xabardor qilinadi. MJtKning 286-moddasini sharhlab, ya’ni ma’muriy yo‘l bilan ushlab turish deganda ma’muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxsning xatti-harakati va yurish erkinligini qisqa muddatga majburiy ravishda cheklab qo‘yish tushuniladi. Ma’muriy yo‘l bilan ushlab turish ma’muriy huquqbuzarlikka qarshi kurash samaradorligini ta’minlovchi vakolatli mansabdor shaxsning kechiktirib bo‘lmaydigan ishlaridir. Huquqbuzarga nisbatan boshqa ta’sir choralari qo‘llanilib bo‘lingandan keyin, ma’muriy huquqbuzarlikning oldini olish, to‘xtatish maqsadida ma’muriy yo‘l bilan ushlab turish qo‘llaniladi. Masalan, huquqbuzarlikni to‘xtatish haqidagi talab bajarilmaganda qo‘llaniladigan ma’muriy ehtiyot chorasi hisoblanadi. Shuningdek, ma’muriy yo‘l bilan ushlab turish chorasi huquqbuzarning shaxsini aniqlash va ma’muriy bayonnoma tuzish majburiy bo‘lsayu, uni huquqbuzarlik sodir etilgan joyda tuzishning iloji bo‘lmasa, ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risida bayonnoma tuzish maqsadida qo‘llaniladi.

Bu borada shuni ta’kidlash joizki, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 25-moddasida fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklari himoya qilingan va mustahkamlab qo‘yilgan bo‘lib, shaxsning jamiyatda daxlsizligi kafolatlab qo‘yilgan. Shu bois, O‘zbekiston Respublikasi hududida hech kim, qonunlarda to‘g‘ridan-to‘g‘ri nazarda tutilgan holatlardan tashqari, asossiz ushlanishi va ushlab turilishi mumkin emas. Shaxsni hurmat qilish, fuqarolarning qonuniy huquq va erkinliklarini himoya qilish barcha davlat organlari,

nodavlat notijorat tashkilotlari va mansabdor shaxslarning burchidir. Ma'muriy yo'l bilan ushlab turish faqat huquqbuzarlik alomatlari mavjud bo'lgandagina amalga oshiriladi. Huquqbuzarlik bo'lmasa, ushlab turishga yo'l qo'yilmaydi. Jamoat joylarida bo'lishi atrofdagilarga va o'zlari uchun ham xavf tug'diradigan ruhiy bemorlar va kichik bolalarni ma'muriy yo'l bilan ushlab turish bundan mustasno.

**E'tibor bering !**

**Ma'muriy yo'l bilan ushlab turishga, shuningdek, quyidagi hollarda ham yo'l qo'yilmaydi:**

✓ ma'muriy huquqbuzarlikning ahamiyatsiz ekanligi va uni boshqa vositalar bilan to'xtatish imkoniyati (*huquqbuzarlikni to'xtatish to'g'risidagi huquqbuzar bajarishi, og'zaki tanbeh, u yoki bu harakat yoxud harakatsizlikka yo'l qo'ymaslik va hokazo*) bo'lganda;

✓ huquqbuzarlik sodir etilgan joyda huquqbuzar shaxsini, voqea tafsilotini aniqlash imkoniyatining bo'lishi, ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risida bayonnoma tuzishga sharoit mavjud bo'lganda;

✓ ma'muriy huquqbuzarlik sodir etilgan joyning o'zida jarima ma'muriy jazosini qo'llashga asosning mavjudligida.

Ma'muriy yo'l bilan ushlab turish to'g'risidagi bayonnomada bayonnoma tuzilgan sana (*yil, oy, kun*) va joy (*bojxona organi, o'zini o'zi boshqarish organining binosi*), bayonnoma tuzgan shaxsning lavozimi; familiyasi, ismi, ota ismi; ushlab turilgan shaxs haqidagi ma'lumotlar; uni ushlab turish vaqti (*soat, daqiqa*), joyi va asoslari ko'rsatiladi. Ma'muriy yo'l bilan ushlab turish to'g'risidagi bayonnoma ro'yxatdan o'tkaziladi va ushlab turishga asos hisoblanuvchi ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi bayonnoma bilan birga, ma'muriy yo'l bilan ushlab turish to'g'risida qaror qabul qilishga vakolatli mansabdor shaxsga topshiriladi.

Odatda harbiy xizmatchilarga nisbatan ma'muriy ushlab turish chorasi qo'llanilmaydi. Biroq jamoat joylarida jiddiy huquqbuzarlikni sodir etishda va qonunda nazarda tutilgan boshqa holatlarda huquqbuzarlik haqidagi hujjatlarni harbiy komendantlarga yoki harbiy qismlarning komandirlariga zudlikda etkazish uchun harbiy xizmatchilarni harbiy patrul bo'lmaganida ushlab turish mumkin. Voyaga

etmaganlarni ma’muriy yo‘l bilan ushlab turish kechiktirib bo‘lmaydigan holatlarni istisno qilganda kunduzgi paytlari amalga oshiriladi. Agar voyaga etmagan shaxs ma’muriy yo‘l bilan ushlab turilganda ota-onasi yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar aniqlanmasa, vakolatli organ (*mansabdor shaxs*)lar voyaga etmagan shaxsning qayerda ekanligi haqida ish yuritayotgan organga yoki vasiylik va homiylik organiga xabar qiladilar. Ushlab turilgan shaxsning iltimosiga ko‘ra ushlab turilgan joy haqida uning qarindosh-urug‘lari, advokat, ish yoki o‘qish joyidagi ma’muriyat xabardor qilib qo‘yiladi. Ushlab turilganlar, agar ushlab turish zarurati qolmagan bo‘lsa, ya’ni qonunda belgilangan ushlab turish muddati tugagan va MJtKning 276-moddasida (Dalillar) nazarda tutilgan holat mavjud bo‘lsa, ushlab turishning belgilangan muddatidan oldin ozod qilinadilar.

Ma’muriy yo‘l bilan ushlab turishga vakolatli organlar (*mansabdor shaxslar*) MJtKning 287-moddasida belgilangan bo‘lib, unda quyidagi ma’muriy huquqbuzarliklar bo’yicha bojxona organlari mansabdor shaxslari ma’muriy yo‘l bilan ushlab turishga vakolatli ekanligi ko’rsatilgan:

**6) $90^{1}$, $184^{2}$, $184^{3}$, $185^{1}$, 189, $189^{1}$, 198, 227, $227^{1}$-$227^{27}$-moddalarida** nazarda tutilgan huquqbuzarliklar sodir etilgan taqdirda **- bojxona organlari xodimlari tomonidan** ma’muriy yo‘l bilan ushlab turish qo’llaniladi. Ma’muriy yo‘l bilan ushlab turishga vakolatli organlar (*mansabdor shaxslar*) qatorida bojxona organlari ma’muriy yo‘l bilan ushlab turish vakolatining kengligi bilan boshqa organlardan alohida ajralib turadi[1].

**Buni bilish kerak !**

**Bojxona organlari tomonidan** MJtKning **35 ta moddasi** bo‘yicha ma’muriy yo‘l bilan ushlab turish belgilangan. Mazkur moddalar asosan, bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzish bilan bog‘liq bo‘lgan bojxona organlari vakolatiga kiritilgan ma’muriy huquqbuzarliklar hisoblanadi. Bojxona organlari ushbu moddalarda belgilangan huquqbuzarliklar bo‘yicha tegishli hujjatlar to‘playdi va o‘z vakolatiga kiradiganlarini

[1] Ўзбекистон Республикасининг Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекси.

ko‘rib chiqadi, vakolatiga kirmaydiganlarini esa belgilangan tartibda vakolatli organlarga yuboradilar.

**E’tibor bering !**

Chegara tartibini yoki O‘zbekiston Respublikasi davlat chegarasi orqali o‘tish punktlaridagi tartibni buzgan shaxslar **uch soatgacha muddatga**, zarur bo‘lgan hollarda esa ushlash paytidan boshlab yigirma to‘rt soat ichida prokurorga yozma tarzda ma’lum qilib, **uch sutkagacha** yoki huquqbuzarda o‘zining shaxsini tasdiqlovchi hujjat bo‘lmasa, prokuror sanksiyasi bilan **o‘n sutkagacha muddatga** ushlab turilishi mumkin.

Davlat chegarasini buzgan xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar jinoiy ish qo‘zg‘ash uchun etarli asos yo‘qligi va bu fuqarolarga nisbatan belgilangan tartibda ularni qo‘shni davlat chegara organlariga topshirish haqida qaror qabul qilingan bo‘lsa, prokuror sanksiyasi bilan ularni topshirish uchun zarur bo‘lgan vaqt mobaynida ushlab turiladi. O‘zbekiston Respublikasi chegaralaridan ma’muriy yo‘l bilan chiqarib yuborishga daxldor xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar chiqarib yuborish uchun zarur bo‘ladigan muddatgacha ushlab turiladi. Ushbu moddaning 3-qismida ko‘zda tutilgan ma’muriy huquqbuzarliklarni sodir etgan shaxs yoki o‘z shaxsini yashirayotgan shaxs ma’muriy ishlar bo‘yicha sudya yoki ichki ishlar organi boshlig‘i (*boshliqning o‘rinbosari*) ishni ko‘rib chiqqunga qadar yigirma to‘rt soatgacha muddatda ushlab turilishi mumkin.

**Buni bilish kerak !**

**Ma’muriy yo‘l bilan ushlab turishda vakolatli organ (*mansabdor shaxs*)lar tomonidan quyidagi ma’muriy protsessual hujjatlar tuziladi:**

- ma’muriy yo‘l bilan ushlab turish to‘g‘risida bayonnoma;
- shaxsni shaxsiy ko‘rikdan o‘tkazish to‘g‘risida bayonnoma yoki ma’muriy yo‘l bilan ushlab turish to‘g‘risidagi bayonnomaning shunga oid qismini to‘ldirish (albatta xolislar ishtirokida);

- ashyolarni ko‘zdan kechirish va olib qo‘yish to‘g‘risida bayonnoma yoki ma’muriy yo‘l bilan ushlab turish to‘g‘risidagi bayonnomaning shunga oid qismini to‘ldirish (albatta xolislar ishtirokida);
- bildirgi (bojxona organi boshlig‘i nomiga ma’muriy yo‘l bilan ushlab turishga ruxsat so‘rash mazmunidagi).

Huquqbuzar ushlanib, materiallar rasmiylashtirilgandan keyin organlar (mansabdor shaxslar), agar bunday ishlarni ko‘rib chiqishga vakolatli bo‘lmasa, materiallarni bunday toifadagi ishlarni ko‘rib chiqishga huquqi bo‘lgan organga (mansabdor shaxsga) MJtKning 282-moddasi talablariga rioya qilingan holda yuboradilar. Ma’muriy yo‘l bilan ushlab turish muddatlari MJtKning 288-moddasida ma’muriy yo‘l bilan ushlab turish **uch soatdan ortiq** davom etishi mumkin emas. Ayrim hollarda alohida zarurat munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida ma’muriy yo‘l bilan ushlab turishning boshqacha muddatlari belgilanishi mumkin.

**E’tibor bering !**

Ma’muriy yo‘l bilan ushlab turish muddati huquqbuzarni bayonnoma tuzish uchun olib kelish paytidan boshlanadi, mast holdagi shaxslar uchun esa - ular hushyor tortgan vaqtdan boshlanadi.

Shaxsni ko‘rikdan o‘tkazish ichki ishlar organlarining, harbiy soqchilik, havo transportining, bojxona organlari va chegara qo‘shinlarining vakolatli shaxslari hamda qonunlarda bevosita bu vakolat berilgan boshqa organlar tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Shu qatorda, bojxona organlari tomonidan shaxslarni shaxsiy ko‘rikdan o‘tkazilishi Bojxona kodeksining (BK) 196-modda belgilangan bo‘lib, unda bojxona organ xodimlarai tomonidan shaxsiy ko‘rik bojxona chegarasi orqali o‘tayotgan va bojxona nazorati zonasida yoki aeroportning xalqaro yo‘nalishlar uchun ochiq bo‘lgan tranzit zonasida bo‘lgan jismoniy shaxsga nisbatan o‘tkaziladi. Shaxsiy ko‘rik bojxona hududiga olib kirish yoki ushbu hududdan olib chiqish taqiqlangan

tovarlarni yoxud ushbu Kodeksda belgilangan tartibni buzgan holda olib o‘tilayotgan tovarlarni jismoniy shaxs yonida yashirmoqda va ularni o‘z ixtiyori bilan taqdim etmoqchi emas, deb taxmin qilishga asoslar bo‘lgan taqdirda bojxona organining mansabdor shaxsi tomonidan amalga oshiriladi. Shaxsiy ko‘rikdan o‘tkazish haqidagi qaror bojxona organining boshlig‘i yoki uning o‘rnini bosuvchi shaxs tomonidan yozma shaklda qabul qilinadi.

**Bu juda muhim !**

Shaxsiy ko‘rikdan o‘tkazishni boshlashdan avval bojxona organining mansabdor shaxsi:

- shaxsiy ko‘rikdan o‘tkazish to‘g‘risidagi qarorni jismoniy shaxsga e’lon qilishi;
- shaxsiy ko‘rik o‘tkazilayotganda jismoniy shaxsni uning huquqlari bilan tanishtirishi;
- jismoniy shaxsga yonida berkitilgan tovarlarni o‘z ixtiyori bilan berishni taklif qilishi shart.

Jismoniy shaxs shaxsiy ko‘rikni rad etgan taqdirda, shaxsiy ko‘rikdan o‘tkazish to‘g‘risidagi qarorga shaxsiy ko‘rikdan o‘tkazish haqidagi qarorni e’lon qilgan bojxona organi mansabdor shaxsining imzosi bilan tasdiqlangan belgi qo‘yiladi.

Agar ko‘rikdan o‘tkazilayotgan shaxs bojxona organi mansabdor shaxsining qonuniy talablarini bajarmasa yoki bajarishga qarshilik ko‘rsatsa, ushbu harakatlar ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi qonunchilikka muvofiq jismoniy shaxsni ma’muriy yo‘l bilan ushlab turish uchun asos bo‘ladi. Shaxsiy ko‘rik sanitariya-gigiena talablariga javob beradigan alohida xonada bojxona organining ko‘rikdan o‘tkazilayotgan shaxs bilan bir jinsdagi mansabdor shaxsi tomonidan xuddi shu jinsdagi ikki xolis hozirligida o‘tkaziladi. Boshqa jismoniy shaxslarning bu xonaga kirish va shaxsiy ko‘rikdan o‘tkazishni kuzatish imkoniyatiga yo‘l qo‘yilmaydi. Ko‘rikdan o‘tkazilayotgan shaxsning tanasini tekshirish faqat tibbiyot xodimlari tomonidan, zarur bo‘lganda, maxsus tibbiyot texnikasidan foydalangan holda amalga oshiriladi. Zarur bo‘lganda shaxsiy ko‘rik o‘tkazilayotganda tarjimon jalb qilinadi.

Voyaga etmagan yoki muomalaga layoqatsiz shaxs shaxsiy ko‘rikdan o‘tkazilayotganida uning qonuniy vakillari (*ota-onasi, farzandlikka olganlar, homiylar, vasiylar*) yoki uni kuzatib boruvchi shaxslar hozir bo‘lishga haqli. Shaxsiy ko‘rik ko‘rikdan o‘tkazilayotgan shaxs tomonidan o‘zida yashirib qo‘yilgan tovarlarni topish uchun zarur bo‘lgan doirada hamda inson sha’ni va qadr-qimmati kamsitilishini, uning sog‘lig‘i va mol-mulkiga ziyon etkazilishini istisno etadigan shaklda amalga oshiriladi.

**Buni bilish kerak !**

**Ko‘rikdan o‘tkazilayotgan shaxs yoki uning qonuniy vakili yoxud uni kuzatib boruvchi shaxs shaxsiy ko‘rikdan o‘tkazish jarayonida quyidagi huquqlarga ega:**

- bojxona organi boshlig‘ining yoki uning o‘rnini bosuvchi boshqa shaxsning shaxsiy ko‘rikdan o‘tkazish to‘g‘risidagi qarori e’lon qilinishini talab qilish;
- ona tilidan foydalanish, shuningdek tarjimon xizmatlaridan foydalanish;
- o‘z huquqlari va majburiyatlari bilan tanishish;
- tushuntirishlar, iltimosnomalar berish;
- shaxsiy ko‘rik bayonnomasini tuzish tugallanganidan so‘ng u bilan tanishib chiqish va mazkur bayonnomaga kiritilishi lozim bo‘lgan ma’lumotlarni bayon etish;
- bojxona organining qarori, uning mansabdor shaxslari harakatlari (*harakatsizligi*) ustidan belgilangan tartibda shikoyat qilish.

Ko‘rikdan o‘tkazilayotgan shaxs yoki uning qonuniy vakili yoxud uni kuzatib boruvchi shaxs qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

Ko‘rikdan o‘tkazilayotgan shaxs yoki uning qonuniy vakili yoxud uni kuzatib boruvchi shaxs shaxsiy ko‘rik davomida bojxona organi mansabdor shaxsining qonuniy talablarini bajarishi shart. Shaxsiy ko‘rik natijalari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi tomonidan belgilanadigan shaklda bayonnoma tuziladi.

**E'tibor bering !**

**Bayonnoma quyidagilar tomonidan imzolanadi:**

- bojxona organining shaxsiy koʻrikni oʻtkazgan mansabdor shaxsi;
- xolislar;
- shaxsiy koʻrikdan oʻtkazilgan jismoniy shaxs yoki uning qonuniy vakili yoxud uni kuzatib boruvchi shaxs;
- tibbiyot xodimi – koʻrikdan oʻtkazilgan shaxsning tana a'zolari u tomonidan tekshirilganda;
- shaxsiy koʻrikda ishtirok etgan boshqa shaxslar.

Shaxsiy koʻrikdan oʻtkazilgan jismoniy shaxsga shaxsiy koʻrik oʻtkazilganligi toʻgʻrisidagi bayonnomaning koʻchirma nusxasi imzo qoʻydirib taqdim etiladi[1].

**Bu juda muhim !**

Shaxsni koʻrikdan oʻtkazish koʻrikdan oʻtkazilayotgan shaxs bilan bir jinsda boʻlgan shaxslar tomonidan va shu jinsdagi ikkita xolis guvoh ishtirok etgan holda amalga oshirilishi mumkin.

Huquqbuzarlarni ushlash, shaxsiy koʻrikdan oʻtkazish yoki ashyolarini koʻzdan kechirish vaqtida aniqlangan huquqbuzarlik sodir etish quroli yoki bevosita shunday ashyolar va hujjatlar olib qoʻyiladi. Olib qoʻyilgan ashyo va hujjatlar ma'muriy huquqbuzarlik toʻgʻrisidagi ishlar koʻrib chiqilgunga qadar shunday ashyo va hujjatlarni olib qoʻyish huquqi berilgan organlar (*mansabdor shaxslar*) tomonidan belgilab beriladigan joylarda saqlanadi, ish koʻrib boʻlinganidan keyin esa, uni koʻrib chiqish natijalariga qarab, bu ashyo va hujjatlar belgilangan tartibda musodara qilinadi yoki egasiga qaytarib beriladi yoxud yoʻq qilib yuboriladi, ashyolar haq toʻlab olib qoʻyilgan takdirda esa - sotib yuboriladi.

Shaxsiy koʻrikdan oʻtkazish va ashyolarni koʻzdan kechirish toʻgʻrisida bayonnoma tuziladi yoki ma'muriy huquqbuzarlik

---

[1] O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksining 196-moddasi.

to‘g‘risidagi bayonnomaga yoxud ma’muriy yo‘l bilan ushlab turish to‘g‘risidagi bayonnomaga tegishincha yozib qo‘yiladi. Bojxona muassasalarida shaxsiy ko‘rikdan o‘tkazish va ashyolarni ko‘zdan kechirish bojxonaga doir qonun hujjatlari bilan belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Shaxsni ko‘rikdan o‘tkazish va ashyolarni ko‘zdan kechirish, boshqa ta’sir choralari, ya’ni ma’muriy bayonnoma tuzish, shaxsni aniqlash, ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlarni o‘z vaqtida, ob’ektiv va to‘g‘ri ko‘rib chiqilishini ta’minlash singari ta’sir choralari tamom bo‘lganda huquqbuzarlik va hodisa sodir bo‘lgan vaziyatni hamda ish uchun ahamiyatli bo‘lgan boshqa holatlarni aniqlashtirish, shuningdek, kelgusida shunga o‘xshash holatlarni oldini olish maqsadida amalga oshiriladi. Ma’muriy ko‘zdan kechirishning mohiyati huquqbuzarlikning quroli yoki bevosita ob’ekti hisoblangan hujjatlar, ashyolar va boshqa narsalarni topish va olib qo‘yish maqsadida shaxsni va uning mulkini majburiy ko‘rikdan o‘tkazishdan iborat.

Ko‘zdan kechirishdan avval vakolatli mansabdor shaxs huquqbuzarlik yoki qonunda ko‘zda tutilgan boshqa hodisalarni sodir etganligi haqida ma’lumotlarga ega shaxsga huquqbuzarlikning quroli yoki bevosita ob’ekti hisoblangan, ushlab keltirilganning shaxsini tasdiqlaydigan hujjatlar yoki buyumlarni va boshqa narsalarni ko‘rsatishi lozim.

Fuqaroni shaxsiy ko‘rikdan o‘tkazish shu jinsdagi ikkita xolis guvoh ishtirokida ko‘rikdan o‘tkazilayotgan shaxs bilan bir jinsda bo‘lgan ichki ishlar organlarining, harbiy soqchilik, havo transportining, bojxona organlari va chegara qo‘shinlarining vakolatli shaxslari, O‘zbekiston Respublikasi qonunlarida bevosita nazarda tutilgan hollarda esa, shunga vakolati bo‘lgan boshqa organlarning xodimlari tomonidan binoda yoki begona fuqarolar kiritilmaydigan hamda sanitariya va gigiena qoidalariga javob beradigan boshqa joyda amalga oshiriladi.

Shaxsni ko‘rikdan o‘tkazishda ko‘rikdan o‘tkazilayotgan shaxsning xavfsizligi va salomatligi, uning shaxsiy qadr-qimmati ko‘rikdan o‘tkazilayotgan paytda ko‘rikdan o‘tkazilayotgan shaxsni obro‘sizlantiradigan ma’lumotlarni sir saqlanishi ta’minlanishi lozim. Chunki O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26-27-moddalariga binoan, hech kim inson qadr-qimmatini kamsituvchi

tazyiqqa duchor etilishi, sha’ni, or-nomusi kamsitilishi mumkin emas. Buyumlarni, boshqa narsalarni ko‘zdan kechirish ushbu moddaning uchinchi qismida nazarda tutilgan ichki ishlar organlarining, harbiy soqchilik, havo transportining, bojxona organlarining, chegara qo‘shinlarining, soliq organlarining, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti va uning joylardagi bo‘linmalarining, O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish qo‘mitasi va O‘rmon xo‘jaligi davlat qo‘mitasi organlarining, O‘zbekiston Respublikasi qonununchilikda bevosita nazarda tutilgan hollarda esa, shuningdek, tegishli vakolati bo‘lgan organlarning boshqa vakolatli shaxslari tomonidan ikkita xolis guvoh ishtirokida amalga oshiriladi. Shu bilan birga, ko‘zdan kechirilayotgan ashyolar va buyumlarning butligi, ularning tovar sifatidagi tashqi ko‘rinishi saqlab qolinishi kerak. Vakolatli mansabdor shaxs shaxsni ko‘rikdan o‘tkazish va ashyolarni ko‘zdan kechirishni ma’muriy protsessual chorasini tugatgandan keyin bayonnoma tuziladi yo ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi bayonnomaga yoki ma’muriy yo‘l bilan ushlab turish haqidagi bayonnomasiga tegishincha yozuv kiritiladi. Bu hujjat yoki yozuv vakolatli mansabdor shaxs, ikkita xolis guvoh va ko‘rik o‘tkazilayotgan shaxs tomonidan imzolanadi. Ko‘rik o‘tkazilayotgan shaxsdan topilgan huquqbuzarlikning quroli yoki bevosita ob’ekti hisoblangan ashyolar MJtK 287 va 289-moddalarda nazarda tutilgan bojxona organlarining vakolatli mansabdor shaxslari tomonidan olib qo‘yiladi.

Xulosa qilib aytganda, ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritishni ta’minlash choralarini bilish mansabdor shaxslarga ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni har tomonlama, to‘liq va xolisona yuritilishini ta’minlashga yordam beradi.

**O‘zingizni sinab ko‘ring !!!**

1. Ish yuritishni ta’minlash choralari deganda nimani tushunasiz?
2. Ma’muriy yo‘l bilan ushlab turish haqida gapirib bering?
3. Narsani ko‘zdan kechirish tartibini tushuntirib bering?
4. Olib qo‘yish tartibini tushuntirib bering?

## 2.2-§ Ma’muriy yo‘l bilan ushlab turish to‘g‘risida bayonnoma namunasi

**B A YO N N O M A**
**ma’muriy yo‘l bilan ushlab turish to‘g‘risida**

20___ yil «____» __________ ______________shahar (tuman)

Men, ____________________________________________________________
(bayonnoma tuzgan shaxsning lavozimi, unvoni, familiyasi, ismi va sharifi)
_____________________________________________________________________
O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi (MJtK)ning 285-288-moddalari talablariga rioya qilgan holda,

Tarjimon ______________________________________________________
(F.I.SH, yashash va ish joyi, telefon №, agar huquqbuzar tarjimon yordamiga
_____________________________________________________________________
muxtoj bo‘lmasa, bu haqda tegishli yozuv kiritib, huquqbuzar imzosi bilan tasdiqlanadi)
qatnashuvida, unga MJtKning 300-moddasida ko‘rsatib o‘tilgan majburiyatlari tushuntirilgan holda.

______________________________
(imzo)

MJtKning ______-moddasi ____-qismida ko‘rsatib o‘tilgan huquqbuzarlikni sodir etgan:

1. F.I.SH.:____________________________________________________________
2. Tug‘ilgan sanasi va joyi:_____________________________________________
3. Millati:_____________________________________________________________
4. Fuqaroligi:__________________________________________________________
5. Ma’lumoti:__________________________________________________________
6. Yashash joyi:_________________________________________________________
_____________________________________________________________________
7. Ish joyi va lavozimi:__________________________________________________
_____________________________________________________________________
8. Oilaviy axvoli:________________________________________________________
9. Sһaxsini tasdiqlovchi hujjat:________________________________________
(pasport yoki boshqa shaxsini tasdiqlovchi hujjat raqami, kim tomonidan va qachon berilgan)
_____________________________________________________________________
__________________________________________________________________ da
(ushlab turilgan joy haqida ma’lumot)
ma’muriy yo‘l bilan ushlab turdim.

Ma’muriy yo‘l bilan ushlab turish _____________________________ kuni
(kun, oy)
soat _____ dan ____ daqiqa o‘tganda boshlanib, _______________________ kuni
(kun, oy)
soat _____ dan ____ daqiqa o‘tganda tamomlandi.

Huquqbuzar ____________________________ ga MJtKning 294-moddasida
(F.I.SH.)
ko‘rsatilgan huquq va burchlari to‘liq tushuntirildi, ya’ni:

**MJtKning 294-moddasi.** Ma’muriy javobgarlikka tortilayotgan shaxs ish materiallari bilan tanishib chiqishga,

izohlar berishga, dalillar keltirishga, o‘z iltimosini bayon etishga, ishni ko‘rib chiqish vaqtida advokatning yuridik yordamidan foydalanishga, o‘z ona tilida so‘zlashga va tarjimonning xizmatlaridan foydalanishga, ish yuzasidan chiqarilgan qaror ustidan shikoyat berishga haqlidir. Ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ish ma’muriy javobgarlikka tortilayotgan shaxs ishtirokida ko‘rib chiqiladi. Mazkur shaxsga ishni ko‘rib chiqish joyi va vaqti haqida xabar qilinganligi to‘g‘risida ma’lumotlar bo‘lgan va undan ishni ko‘rib chiqishni kechiktirish xususida hech qanday iltimos tushmagan hollardagina ish uning ishtirokisiz ko‘rib chiqilishi mumkin.

Basharti sodir etgan huquqbuzarligi uchun ushbu Kodeksda ma’muriy qamoqqa olish, ashyolarini musodara qilish yoki haqini to‘lash sharti bilan olib qo‘yish choralarini qo‘llanish nazarda tutilgan bo‘lsa, ma’muriy xuquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqish vaqtida ma’muriy javobgarlikka tortilayotgan shaxsning qatnashishi shart. Mazkur shaxs bunday ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishni ko‘rib chiqishda qatnashishdan bo‘yin tovlagani taqdirda u ma’muriy ishlar bo‘yicha sudyaning ajrimiga binoan ichki ishlar (militsiya) organi tomonidan majburan olib kelinishi mumkin. Eksport qilinishi man etilgan buyumlar va mahsulot O‘zbekiston Respublikasidan tashqariga olib chiqib ketilishi bilan bog‘liq bo‘lib, musodara chorasi qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi ish bojxona organi tomonidan alohida hollarda, agar ma’muriy javobgarlikka tortilayotgan shaxs O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida bo‘lsa yoki uning qaerdaligini aniqlashning iloji bo‘lmasa, ma’muriy javobgarlikka tortilayotgan shaxsning ishtirokisiz ko‘rib chiqiladi.

MJtKning 294-moddasida ko‘rsatilgan huquq va burchlarim bilan to‘liq tanishdim. ______________________________________________
(huquqbuzarning F.I.SH. va imzosi)

MJtKning 286-moddasiga asosan, ushlangan ____________________
(ushlangan shaxsning F.I.Sh.)

ning iltimosiga ko‘ra __________________________________orqali
(xabar berishda foydalanilgan vositalar to‘g‘risidagi ma’lumotlar)

uning ___________________________________________________
(qarindosh-urug‘lari, advokati, ish yoki o‘qish joyidagi ma’muriyat xodimining, voyaga etmagan shaxsning ota-onasi

_________________________________________________________,
yoki ular o‘rnini bosuvchi shaxsning F.I.SH. hamda ularga qay tarzda xabar berilganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar)

20____ yil “____”______________ kuni, soat _____:_____ da ushlanganligi va hozir ____________________________________________________

______________________________da ushlab turilganligi haqida xabar berildi.
(voyaga etgan shaxs ushlanganligi haqida xabar berish to‘g‘risida iltimos qilmagan taqdirda,
bu haqda tegishli yozuv kiritilib, ushlangan shaxsning imzosi bilan tasdiqlanadi)

______________________________
(ushlangan shaxsning imzosi)

Bayonnoma ishtirokchilarga o‘qib eshittirildi va tanishib chiqish uchun taqdim etildi. Ishtirokchilar tomonidan qo‘shimcha va e’tirozlar _________________________________________________________
(kim tomonidan, qanday qo‘shimcha va e’tirozlar bildirildi)

_________________________________________________________

Tarjimon: ________________________ /__________________________
(imzo) (F.I.SH)

Ushlangan shaxs: ________________________ /__________________________
(imzo) (F.I.SH)

Advokat: ____________________/________________________
(imzo) (F.I.SH)

Bayonnoma tuzuvchi: ________________________ /__________________________
(imzo) (F.I.SH)

## 2.3-§ Shaxsni ma'muriy yo'l bilan ushlab turilganligi haqida prokurorga xabarnoma namunasi

20 ___ yil "___" ___________ ________________________________
_______________________-son (prokuratura organi)

**XABARNOMA**[1]
**shaxsning ushlab turilganligi haqida**

Fuqaro ________________________________________________________
(F.I.SH.)
1. Tug'ilgan yili, oyi va kuni ______________________________________
2. Ma'lumoti _________________________________________________
3. Oilaviy ahvoli _______________________________________________
4. Ish joyi, lavozimi _____________________________________________
5. Shaxsini tasdiqlovchi hujjat ___________________________________
_________________________________________________________________
*(nomi, seriyasi, raqami, qachon va kim tomonidan berilgan)*

Ushlab turish asoslari ___________________________________________
_________________________________________________________________

Ushlab turish boshlangan vaqt: 20 __yil __________ soat___daqiqa___
*(kun, oy)*
Ushlab turilgan shaxs hozirda _____________________________________
_________________________________________________________________ da
*(vaqtincha saqlash joyi to'g'risida ma'lumotlar)*
saqlanmoqda.

Ushbu hakda Sizga O'zbekiston Respublikasining MJtK 288-moddasiga asosan ma'lum qilinmoqda.

___________________________ ________ _____________________
*(mansabdor shaxs lavozimi)* *(imzo)* *(F.I.SH.)*

---

[1] Идоранинг расмий бланкасида тайёрланади.

## 2.4-§ Ushlab turilgan joy haqida ushlab turilgan shaxsning qarindosh-urug'lari, advokat, ish yoki o'qish joyidagi ma'muriyatga xabarnoma namunasi

20 ___ yil "___" __________ ___________________________________

________________________-son *(ushlab turilgan shaxsning qarindoshi advokat, ish yoki o'qish joyi ma'muriyatiga )*

**XABARNOMA[1]**

**shaxsning ushlab turilganligi haqida**

Fuqaro ___________________________________________________________
*(F.I.SH.)*

Ushlab turish asoslari _____________________________________________
_________________________________________________________________________

Ushlab turish boshlangan vaqt: 20 __yil ____________ soat___daqiqa___
*(kun, oy)*

Ushlab turilgan shaxs hozirda ______________________________________
_______________________________________________________________ da
*(vaqtincha saqlash joyi to'g'risida ma'lumotlar)*
saqlanmoqda.

Ushbu haqda Sizga O'zbekiston Respublikasining MJtK 286-moddasiga asosan ma'lum qilinmoqda.

____________________________ ________ ______________________
*(mansabdor shaxs lavozimi)* *(imzo)* *(F.I.SH.)*

[1] Идоранинг расмий бланкасида тайёрланади.

## 2.5-§ Voyaga etmagan shaxs ushlab turilgani haqida uning ota-onasi yoki ular o‘rnini bosuvchi shaxslarga xabarnoma namunasi

20 ___ yil “___” __________ ________________________________

________________________-son *(voyaga etmagan shaxsning ota-onasi yoki ular o‘rnini bosuvchi shaxslarga)*

**XABARNOMA**[1]
**shaxsning ushlab turilganligi haqida**

Fuqaro _______________________________________________________

*(F.I.SH.)*

Ushlab turish asoslari __________________________________________

_______________________________________________________________

Ushlab turish boshlangan vaqt: 20 __yil ___________ soat___daqiqa ___

*(kun, oy)*

Ushlab turilgan shaxs hozirda ___________________________________

_______________________________________________________________ da

*(vaqtincha saqlash joyi to‘g‘risida ma’lumotlar)*

saqlanmoqda.

Ushbu hakda Sizga O‘zbekiston Respublikasining MJtK 286-moddasiga asosan ma’lum qilinmokda.

____________________________ ________ ______________________

*(mansabdor shaxs lavozimi)* *(imzo)* *(F.I.SH.)*

---

[1] Идоранинг расмий бланкасида тайёрланади.

## 2.6-§ Shaxsni ma’muriy yo‘l bilan ushlab turish muddatini uzaytirish haqida qaror namunasi

**“TASDIQLAYMAN”** | **“RUXSAT BERILSIN”**

________________________________ | ________________________________

*(mansabdor shaxsning lavozimi, F.I.Sh.)* | *(tegishli prokurorning F.I.Sh.)*

________________________________ | ________________________________

*(imzo)* | *(imzo)*

20__ yil _________________ | 20__ yil _________________

*(kun, oy)* | *(kun, oy)*

**Shaxsni ma’muriy yo‘l bilan ushlab turish**
**muddatini uzaytirish haqida**
**QAROR**

20___ yil ____ ___________ _______________shahar (tuman)
*(kun) (oy)*

Men, ____________________________________________________________,
*(vakolatli organ nomidan ish yuritayotgan shaxsning lavozimi, unvoni va F.I.SH.)*

O‘zbekiston Respublikasining MJtK ____-moddasida nazarda tutilgan ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atilgan shaxs ________________.
*(F.I.SH., yashash joyi)*

1. Tug‘ilgan yili, oyi va kuni _______________________________________
2. Ma’lumoti ________________________________________________
3. Oilaviy ahvoli _____________________________________________
4. Ish joyi, lavozimi __________________________________________
5. Muqaddam ma’muriy jazoga tortilganligi _______________________
6. Shaxsini tasdiqlovchi hujjat __________________________________
7. Ushlangan vaqti: 20 ___ yil___________, soat _____________.
*(kun, oy)*
8. Ushlab turish asoslari ________________________________________

nisbatan to‘plangan xujjatlar bilan tanishib chiqib,

**ANIQLADIM:**

_____________________________________________________________
*(ishni kurib chiqish paytida aniqlangan holatlar bayoni)*

_____________________________________________________________
*(ushlab turish muddatini uzaytirishga asoslar)*

_____________________________________________________________

Yuqoridagilardan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi MJtK 287 va 288-moddalariga asoslanib,

**QAROR QILDIM:**

O‘zbekiston Respublikasi MJtK ______-moddasida nazarda tutilgan ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atilgan shaxs _________________________ ni _________________ da ushlab turish muddati
*(F.I.SH.) (ushlab turish joyi)*
20 __ yil _____________, soat _____ga qadar uzaytirilsin.
*(kun, oy)*

____________________________ ________ ______________________
*(mansabdor shaxs lavozimi) (imzo) (F.I.SH.)*

## 2.7-§ Shaxsni ko‘rikdan o‘tkazish va ashyolarni ko‘zdan kechirish to‘g‘risida bayonnoma namunasi

**B A Y O N N O M A**
**huquqbuzarlik sodir etgan shaxsni ko‘rikdan o‘tkazish va undagi ashyolarni ko‘zdan kechirish to‘g‘risida**

20___ yil «____» __________ ______________ shahar (tuman)

Men, ______________________________________________________________
(bayonnoma tuzgan shaxsning lavozimi, unvoni, familiyasi, ismi va sharifi)
_______________________________________________________________________
O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi (MJtK) ning 289-290-moddalari talablariga rioya qilgan holda,

1. _________________________________________________________________
(F.I.SH, yashash joyi, telefon №)
_______________________________________________________________________

2. _________________________________________________________________
(F.I.SH, yashash joyi, telefon №)
_______________________________________________________________________
yashovchi guvohlar (xolislar) ishtirokida, ularga MJtKning 298-moddasida ko‘rsatilgan huquq va majburiyatlari tushuntirilgan holda.

1. ____________________ 2. ____________________
(imzo) (imzo)

Tarjimon_____________________________________________________________
(F.I.SH, yashash va ish joyi, telefon №, agar huquqbuzar tarjimon yordamiga muxtoj bo‘lmasa,
_______________________________________________________________________
bu haqda tegishli yozuv kiritib, huquqbuzar imzosi bilan tasdiqlanadi)
qatnashuvida, unga MJtKning 300-moddasida ko‘rsatib o‘tilgan majburiyatlari tushuntirilgan holda.

_____________________________
(imzo)

Mutaxassis (tibbiyot xodimi) __________________________________________
(F.I.SH., yashash va ish joyi, telefon №)
_______________________________________________________________________
qatnashuvida, unga MJtKning 299-moddasida ko‘rsatib o‘tilgan huquq va burchlari tushuntirilgan holda,

_____________________________
(imzo)

MJtKning ______-moddasi ____-qismida ko‘rsatib o‘tilgan huquqbuzarlikni sodir etgan:
1. F.I.Sh.:_______________________________________________________________
2. Tug‘ilgan sanasi va joyi:_______________________________________________
3. Millati:_______________________________________________________________
4. Fuqaroligi:____________________________________________________________
5. Ma’lumoti:____________________________________________________________
6. Yashash joyi:__________________________________________________________
_______________________________________________________________________
7. Ish joyi va lavozimi:___________________________________________________
_______________________________________________________________________
8. Oilaviy axvoli:_________________________________________________________
9. Shaxsini tasdiqlovchi hujjat:_____________________________________________
(pasport yoki boshqa shaxsini tasdiqlovchi hujjat raqami, kim tomonidan va qachon berilgan)

___________________________________________________________________________
shaxsiy ko'rikdan o'tkazdim.

Huquqbuzar __________________________ ni ko'rikdan o'tkazish natijasida:
(F.I.SH.)

___________________________________________________________________________
___________________________________________________________________________
(ko'rik natijasida aniqlangan har bir ashyo va hujjatning nomi,
___________________________________________________________________________
uning o'ziga xos belgilari, qaerdan olinganligi, topilganligi,
___________________________________________________________________________
soni, vazni va ularni ko'zdan kechirish to'g'risidagi ma'lumotlar,
___________________________________________________________________________
ularni topishda qanday texnik vositalardan foydalanilganligi)
___________________________________________________________________________
___________________________________________________________________________
___________________________________________________________________________
___________________________________________________________________________
___________________________________________________________________________
___________________________________________________________________________
___________________________________________________________________________
___________________________________________________________________________
___________________________________________________________________________
___________________________________________________________________________

Shaxsni ko'rikdan o'tkazish natijasida quyidagi ashyo va hujjatlar topilib, olib qo'yildi: ___________________________________________________________
(olib qo'yilgan ashyolar va hujjatlar nomi va soni)
___________________________________________________________________________
___________________________________________________________________________
___________________________________________________________________________

Shaxsni ko'rikdan o'tkazish davomida ___________________________________ rusumli (fotoapparat, telefon, videokamera)da (foto, video) tasvirga tushirildi va ish materiallariga ilova qilindi.

Bayonnoma ishtirokchilarga o'qib eshittirildi va tanishib chiqish uchun taqdim etildi. Ishtirokchilar tomonidan qo'shimcha va e'tirozlar
___________________________________________________________________________
(kim tomonidan, qanday qo'shimcha va e'tirozlar bildirildi)

Guvohlar: 1. _______________________ /_______________________________
(imzo) (F.I.SH)

2. _______________________ /_______________________________
(imzo) (F.I.SH)

Tarjimon: _______________________ /_______________________________
(imzo) (F.I.SH)

Mutaxassis
(tibbiyot xodimi): ___________________ /_______________________________
(imzo) (F.I.SH)

Huquqbuzar: _______________________ /_______________________________
(imzo) (F.I.SH)

Bayonnoma tuzuvchi: ___________________/_______________________________
(imzo) (F.I.SH)

## 2.8-§ Ashyolar va hujjatlarni olib qo‘yish to‘g‘risida bayonnoma namunasi

**Ashyolar va hujjatlarni olib qo‘yish to‘g‘risida**
**BAYONNOMA**

20___ yil ____ __________ ______________shahar (tuman)

Mazkur bayonnoma ______________________________________________
*(bayonnomani tuzishga asos bo‘lgan uolat bayoni)*
holati yuzasidan ____________________________________________________
*(ko‘rik yoki ashyolarni ko‘zdan kechirish o‘tkazilgan shaxsning F.I.SH., yashash va ish joyi, tug‘ilgan vaqti va shaxsiga oid boshqa ma’lumotlar)*
o‘tkazilgan shaxsiy ko‘rik va ashyolarini ko‘zdan kechirish vaqtida aniqlangan huquqbuzarlik sodir etish qurollari yoki bevosita shunday ashyolar va hujjatlar __________________________________________________________
*(qanday ashyo va hujjatlar olib qo‘yilganligi aniq va batafsil yoziladi)*
__________________________________________________________________
____________________________ olib qo‘yilganligi yuzasidan tuzildi.

Mazkur bayonnoma ______________________________________________
*(bayonnoma tuzgan shaxsning lavozimi va F.I.SH., ishtirok etgan shaxslar)*
__________________________________________________________________
*(ashyo va xujjat egasi, uukuko‘uzar va boshqalar bo‘lganda ularning manzili uak,ioa ma’lumot)*

ishtirokida _______________________________________________________
_____________________________________xolisligi (guvoxdigi)da tuzildi.

Olib qo‘yilgan ashyo (xujjat)lar _______________________________ga
*(ashyolarni saqlashuchun belgilangan joy)*
saqlash uchun topshiriladi hamda ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ish ko‘rib chiqilgunga qadar saqlanadi. Olib qo‘yilgan ashyo (hujjat)lar taqdiri ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ish ko‘rib bo‘linganidan keyin_______ _______________________________________ qaroriga asosan hal etiladi.
*(qaror qabul qiluvchi organ yoki mansabdor shaxs)*

Xolislar:

1. ______________________________ __________
*(F.I.SH., yashash va ish joyi, telefoni) (imzo)*
2. ______________________________ __________
*(F.I.SH., yashash va ish joyi, telefoni) (imzo)*

Ashyo va xujjatlari olib qo‘yilgan shaxs (lar):

1. ______________________________ __________
*(F.I.SH., yashash va ish joyi, telefoni) (imzo)*
2. ______________________________ __________
*(bayonnoma tuzuvchi shaxsning F.I.SH.) (imzo)*

## 2.9-§ Transport vositasini to‘xtatish, ko‘zdan kechirish va ushlab turish haqidagi bayonnoma namunasi

**B A YO N N O M A**
**transport vositasini to‘xtatish, ko‘zdan kechirish va ushlab turish haqida**

20___ yil «____» __________ _____________ shahar (tuman)

Boshlandi: soat ___.___ daqiqada
Tugadi: soat ___.___ daqiqada

Men, ____________________________________________________________
(bayonnoma tuzgan shaxsning lavozimi, unvoni, familiyasi, ismi va sharifi)
______________________________________________________________________
O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi (MJtK) ning 279-281 va 291-moddalari talablariga rioya qilgan holda,

1.__________________________________________ _______________________
(F.I.SH, yashash joyi, telefon №)
______________________________________________________________________

2.____________________________________________________________________
(F.I.SH, yashash joyi, telefon №)
______________________________________________________________________
yashovchi guvohlar (xolislar) ishtirokida, ularga MJtKning 298-moddasida ko‘rsatilgan huquq va majburiyatlari tushuntirilgan holda,

1. ____________________ 2. ____________________
(imzo) (imzo)

Tarjimon ____________________________________________________________
(F.I.SH, yashash va ish joyi, telefon №, agar huquqbuzar tarjimon yordamiga
______________________________________________________________________
muxtoj bo‘lmasa, bu haqda tegishli yozuv kiritib, huquqbuzar imzosi bilan tasdiqlanadi)
qatnashuvida, unga MJtKning 300-moddasida ko‘rsatib o‘tilgan majburiyatlari tushuntirilgan holda,

______________________________
(imzo)

Ekspert (mutaxassis) ________________________________________________
(F.I.SH., yashash va ish joyi, telefon №)
______________________________________________________________________
qatnashuvida, unga MJtKning 299-moddasida ko‘rsatib o‘tilgan huquq va burchlari tushuntirilgan holda,

______________________________
(imzo)

______________________________________________________________________
(transport vositasi harakat yo‘nalishi va to‘xtatilgan yoki aniqlangan joyi)
______________________________________________________________________
fuqaro _______________________________________________________________
(F.I.SH. yashash joyi, telefon №)
_____________________________________________________ boshqaruvida bo‘lgan,
fuqaro _______________________________________________________________
(F.I.SH. yashash joyi, telefon №)
_____________________________________________________________ ga tegishli
________________________________________________________________ rusumli
_____________________________ davlat belgili avtoulov to‘xtatildi (aniqlandi).

Transport vositasi ____________________________________________

(transport vositasi olib kelib joylashtirilgan joy)

____________________________________________________________________

____________________________________ joylashtirilib, ko‘zdan kechirildi.

**ko‘zdan kechirish davomida quyidagilar aniqlandi:**

____________________________________________________________________

(qanday hujjatlar taqdim qilindi, transport vositasini ishlab chiqarilgan yili,

____________________________________________________________________

rangi, dvigatel va kuzov raqami, VIN raqami,

____________________________________________________________________

ko‘zdan kechirish davomida topilgan va olingan ashyolar va hujjatlar)

____________________________________________________________________

____________________________________________________________________

____________________________________________________________________

____________________________________________________________________

Fuqaro _______________________________________________________

(F.I.Sh.)

harakatlarida_____________________________________________________

(qaysi qonun (Kodeksning) moddalari buzilganligi aniq ko‘rsatish lozim)

ko‘rsatib o‘tilgan huquqbuzarlik alomatlari mavjudligini inobatga olib, ish materiallari ko‘rib chiqilgunga qadar ko‘rsatilgan avtoulov olindi va mas’ul saqlovga ____________________________________________________________

(transport vositasi joylashtirilgan joy nomi va mas’ul saqlovga qabul qilgan shaxs F.I.SH., lavozimi)

____________________________________________________________________

________________________________________________________ topshirildi.

Ko‘zdan kechirish davomida ________________________________________ rusumli (fotoapparat, telefon, videokamera)da (foto, video) tasvirga tushirildi va ish materiallariga ilova qilindi.

Ko‘zdan kechirish davomida topilgan _________________________________

____________________________________________________________________

(topilgan ashyolar, hujjatlar nomi va qaerga topshirilgan yoxud ish materiallariga ilova qilingan)

**Uzrli sabablarga ko‘ra o‘tkazib yuborilgan ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ish yuzasidan chiqarilgan qaror xususida shikoyat berish muddatini qayta tiklash masalasini ko‘rib chiqish yuzasidan**

**QAROR**

20 ___ yil ________________ ________________________

*(kun, oy)* *(joy nomi)*

______________________________________________________________

*(shikoyatn ko‘rib chiqishga vakolatli davlat organi yoki mansabdor shaxs)*

______________________________________________________________

_________ tomonidan O‘zbekiston Respublikasining MJtK _____-moddasi bilan ____________________________________________ ning

*(F.I.SH.)*

unga nisbatan ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ish yuzasidan chiqarilgan qaror xususida shikoyat berish muddatini _______________________________

______________________________________________________________

*(shikoyat berish muddatini qayta tiklashning asoslantirilgan sabablari)*

______________________________________________________________

_____________________________________________________ sabablarga ko‘ra qayta tiklashni so‘rab yozgan arizasi ko‘rib chiqilib, quyidagilar

**ANIQLANDI:**

______________________________________________________________

______________________________________________________________

______________________________________________________________

*(shikoyat berish muddati o‘tkazib yuborganligiga sabab bo‘lgan uolatlar, shikoyat berish muddatini o‘tkazib yuborish sabablarini uzrli yoki uzrsiz deb topish asoslari)*

Yuqoridagilardan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasining MJtK 316-moddasiga asosan ________________________________________________

*(ishni ko‘rib chiquvchi organ (mansabdor shaxs)*

**QAROR QILADI:**

______________________________________________________________

*(arizani ko‘rib chiqish natijasi yuzasidan qabul qilingan qaror)*

__________________________ __________ ____________________

*(mansabdor shaxs lavozimi)* *(imzo)* *(F.I.SH.)*

## 4.5-§ Ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ish yuzasidan chiqarilgan qaror xususida berilgan shikoyat (protest)ni kassatsiya instansiyasida ko‘rib chiqish haqidagi bayonnoma namunasi

**Ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ish yuzasidan chiqarilgan qaror xususida berilgan shikoyat (protest)ni kassatsiya instansiyasida ko‘rib chiqish haqida BAYONNOMA**

20 ___ yil ________________ ________________________
*(kun, oy)* *(hudud nomi)*

_____________________________________________________ tomonidan
*(ishni ko‘rib chiqadigan kassatsiya instansiyasi va uning tarkibi)*
_____________________________ ning O‘zbekiston Respublikasining MJtK
*(shikoyat yoki protest kiritgan shaxs)*
____-moddasi bo‘yicha fuqaro_____________ga nisbatan___________________
*(F.I.SH.)* *(qaror chiqargan davlat organi yoki mansabdor shaxs)*
tomonidan 20 ___ yil “____” _____________ da _____________jazosi qo‘llash haqidagi qaror xususida berilgan shikoyat (protest) ko‘rib chiqilmoqda.

_______________________________________________________________
*(shikoyat (protest)ni ko‘rib chiqishda qatnashayotgan shaxslarning majlisga kelgan-kelmaganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar)*

_______________________________________________________________
*(shikoyat (protest)ni ko‘rishda ishtirokchilarning izohi)*

_______________________________________________________________
*(shikoyat (protest)ni ko‘rib chiqishda chiqarilgan qarorning qonuniyligi, asosliligi va adolatliligi o‘rganilganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar)*

_______________________________________________________________
*(qabul qilingan qarorni o‘qib eshittirish to‘g‘risidagi ma’lumotlar va qaror ustidan shikoyat berish tartibi va muddati)*

Raislik etuvchi

_____________________ __________ __________________
*(mansabdor shaxs lavozimi)* *(imzo)* *(F.I.SH.)*

Kotib

_____________________ __________ __________________
*(lavozimi)* *(imzo)* *(F.I.SH.)*

## 4.6-§ Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish yuzasidan chiqarilgan qaror xususida berilgan shikoyat (protest)ni ko'rib chiqish natijasi bo'yicha hal qiluv qarori namunasi

**HAL QILUV QARORI (QAROR)**
**ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish bo'yicha chiqarilgan qaror xususida berilgan shikoyat (protest)ni ko'rib chiqish yuzasidan**

20 ___ yil ________________ ________________________
*(kun, oy)* *(hudud nomi)*

____________________________________________________tomonidan
*(ishni ko'rib chiqadigan kassatsiya instansiyasi va uning tarkibi)*
_____________________________ning O'zbekiston Respublikasining MJtK
*(shikoyat yoki protest kiritgan shaxs)*
____-moddasi bo'yicha fuqaro _______________________________ ga nisbatan
*(F.I.SH.)*
________________________ tomonidan 20 ___ yil "____" ______________ da
*(qaror chiqargan davlat organi yoki mansabdor shaxs)*
_______________________ jazosi qo'llash haqidagi qaror xususida berilgan shikoyat (protest) ko'rib chiqilib, quyidagilar

**ANIQLANDI:**

___________________________________________________________________
*(ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish yuzasidan chiqarilgan qaror va ish holatlari yuzasidan ma'lumotlar,*
___________________________________________________________________
*prokuror va boshqa ishtirok etayotgan shaxslar, shikoyat, protestning mohiyati,*
___________________________________________________________________
*qarorning qonuniyligi, asosliligi va adolatliligi xususida ishni ko'rib chiqayotgan*
___________________________________________________________________
*organ (mansabdor shaxs)ning to'xtami)*

Binobarin, qayd qilinganlarga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining MJtK 319 va 321-moddalarini qo'llab,

**QAROR QILDIM[1]:**

1. ___________________________________________________________
*(qaror mazmuni)*
2. ___________________________________________________________
*(qaror ustidan shikoyat va protest bildirish muddati va tartibi)*

_____________________ __________ ____________________
*(mansabdor shaxs lavozimi)* *(imzo)* *(F.I.SH.)*

---

[1] Qaror quyidagilardan biri haqida bo'ladi:
1) chiqarilgan qarorni o'zgarishsiz, shikoyat yoki protestni esa, qanoatlantirishsiz qoldirish;
2) chiqarilgan qarorni bekor qilish va ishni qayta ko'rib chiqish uchun yuborish;
3) chiqarilgan qarorni bekor qilish va ishni yuritishni to'xtatish;
4) jazo chorasini kuchaytirmagan holda uni ma'muriy huquqbuzarlik uchun javobgarlik to'g'risidagi normativ hujjatda nazarda tutilgan doirada o'zgartirish.

## 4.7-§ Ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ish yuzasidan chiqarilgan qaror xususida berilgan shikoyat (protest)ni ko‘rib chiqish natijasi bo‘yicha hal qiluv qarori nusxasini olish to‘g‘risida iltimosnoma namunasi

*(shikoyat yoki protest yuzasidan qaror chiqargan organ (mansabdor shaxs)*

_______________________________________

*(jabrlanuvchining F.I.Sh., turar joyi va telefon raqami)*

**ILTIMOSNOMA**
**ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ish yuzasidan chiqarilgan qaror xususida berilgan shikoyat (protest)ni ko‘rib chiqish natijasi bo‘yicha hal qiluv qarori nusxasini olish to‘g‘risida**

Menga, _______________________________________________________
*(sonli yoki ____ holat yuzasidan rasmiylashtirilgan)*
ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ish yuzasidan 20 ___ yil “____” __________________ kuni _____________________________________ tomonidan
*(davlat organi yoki mansabdor shaxs)*
chiqarilgan qaror xususida berilgan shikoyat (protest)ni ko‘rib chiqish natijasi bo‘yicha qabul qilingan hal qiluv qarorining nusxasini O‘zbekiston Respublikasining MJtK 321-moddasiga asosan berishingizni so‘rayman.

_________________________ _____________________
*(F.I.SH.)* *(imzo)*

20___ yil “ ___”_______________

## 4.8-§ Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish yuzasidan chiqarilgan qaror xususida berilgan shikoyat (protest)ni ko'rib chiqish natijasi bo'yicha hal qiluv qarori nusxasini yuborish haqida xat namunasi

20 __ yil "___" ______________ ___________________________

*(hal qiluv qarori nusxasi yuborilayotgan idora (shaxs)*

_______________________-son

**Hal qiluv qarori nusxasini yuborish haqida**

Ushbu orqali Sizga ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish yuzasidan chiqarilgan qaror xususida berilgan shikoyat (bildirilgan protest)ni ko'rib chiqish bo'yicha hal qiluv qarorining nusxasi O'zbekiston Respublikasining MJtK 321-moddasi 5-qismi tartibida yuborilmokda.

Ilova: hal qiluv qarori _______varakda.

_____________________ ________ ___________________

*(mansabdor shaxs lavozimi)* *(imzo)* *(F.I.SH.)*

## V-BOB. BOJXONA SOHASIDAGI MA’MURIY JAZO QO‘LLASH TO‘G‘RISIDAGI QARORLARNI IJRO ETISH

### 5.1-§ Bojxona sohasidagi ma’muriy jazo qo‘llash to‘g‘risidagi qarorlarni ijro etish bo’yicha asosiy qoidalar

Bojxona sohasidagi ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqish natijasida aybdor shaxslarga nisbatan ta’sirchan choralar ko‘rish dolzarb bo‘lib, jazo qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, sodir etilgan ma’muriy huquqbuzarliklarni kelgusida takrorlanmasligi, shuningdek, fuqarolarning buzilgan huquq va erkinliklarini tiklanishi ma’muriy jazo qo‘llash orqali amalga oshiriladi. Shu bois, quyida e’tiboringizga ma’muriy jazo qo‘llash to‘g‘risidagi qarorlarni ijro etishga oid tartib-qoidalar to‘g‘risida ma’lumot berib o‘tiladi. Ma’muriy jazo qo‘llash to‘g‘risidagi qarorni korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar ijro etishi majburiydir. Ma’muriy jazo qo‘llash to‘g‘risidagi qaror, basharti qonun hujjatlarida o‘zgacha qoida belgilanmagan bo‘lsa, chiqarilgan paytdan boshlab ijro etilishi lozim. Ma’muriy jazo qo‘llash to‘g‘risidagi qaror, unga berilgan shikoyat yoki bildirilgan protest qanoatlantirishsiz qoldirilgandan keyin ijro etilishi kerak. Ma’muriy huquqbuzarlik sodir etilgan joyning o‘zida undirib olinadigan jarima solish to‘g‘risidagi qaror bundan mustasnodir.

**Jarima solish to‘g‘risidagi qarorni majburiy ijro etish.** Huquqbuzar jarimani MjtKning 332-moddasida belgilangan muddat ichida to‘lamagan taqdirda, jarima solish to‘g‘risidagi qaror sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to‘g‘risidagi qonunchilikda belgilab qo‘yilgan qoidalarga muvofiq jarimani uning ish haqi yoki boshqa maoshidan, nafaqasidan yoki stipendiyasidan majburiy tartibda undirib olish uchun yuboriladi. Basharti jarima solingan shaxs ishlamayotgan bo‘lsa yoxud jarimani huquqbuzarning ish haqi yoki boshqa daromadidan, pensiyasi yoki stipendiyasidan boshqa sabablarga ko‘ra undirib olishning iloji bo‘lmasa, uni undirib olish davlat ijrochisi tomonidan jarima solish to‘g‘risida tegishli organ (mansabdor shaxs)

chiqargan qaror asosida huquqbuzarning mulkidan, shuningdek umumiy mulkdagi uning hissasidan undirib olish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Jarima O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq ijro hujjatlari bo‘yicha undirib olinishi mumkin bo‘lmagan mol-mulkdan undirib olinishi mumkin emas.

**E’tibor bering !**

Jarima huquqbuzar tomonidan unga jarima solish to‘g‘risidagi qaror topshirilgan kundan boshlab **o‘ttiz kundan kechiktirmay**, bunday qaror xususida shikoyat berilgan yoki protest bildirilgan taqdirda - shikoyat yoki protest qanoatlantirilmaganligi to‘g‘risida xabar berilgan kundan boshlab **o‘n besh kundan kechiktirmay** to‘lanishi lozim.

O‘n olti yoshdan o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan shaxslarning mustaqil ish haqi bo‘lmagan taqdirda, jarima ularning ota-onalari yoki ular o‘rnini bosuvchi shaxslardan undirib olinadi. Jarima solish to‘g‘risidagi qaror uni ixtiyoriy ravishda bajarishning MJtKning 332-moddasida belgilab qo‘yilgan muddati o‘tib ketganidan keyin majburiy ravishda ijro etiladi. Ma’muriy qamoqqa olish yoki jarima solish (joyning o‘zida undirib olinadigan jarima solish bundan mustasno) tarzida ma’muriy jazo qo‘llanish to‘g‘risidagi qarorni darhol ijro etishga imkon bermaydigan holatlar mavjud bo‘lgan takdirda, shu qarorni chiqargan organ (mansabdor shaxs) uning ijrosini **bir oygacha muddatga** kechiktirishi mumkin. MjtKning 283-moddasiga muvofiq jarima ma’muriy huquqbuzarlik sodir qilingan joyning o‘zida undirib olingan taqdirda huquqbuzarga qat’iy moliyaviy hisobot hujjati hisoblangan belgilangan nusxadagi kvitansiya beriladi. Jarima ma’muriy huquqbuzarlik sodir etilgan joyning o‘zida to‘lanmasa, ishni ko‘rib chiqish va qarorni ijro etish MjtKning 332 va 333-moddalarida nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi. Jarima solish to‘g‘risidagi qarorga muvofiq jarima to‘la-to‘kis undirib olingach, uning ijro etilganligi haqida belgi qo‘yilib, shu qarorni chiqargan organga (mansabdor shaxsga) yoki sudga qaytariladi. Majburiy ijroga qaratilgan jarima solish to‘g‘risidagi qaror ijro etilganidan so‘ng davlat ijrochisi ijro ishini yuritishni tamomlash to‘g‘risida qaror chiqaradi va uning bir nusxasini uni

chiqargan organga (mansabdor shaxsga) yoki sudga yuboradi.

**Narsani musodara qilish to‘g‘risidagi qarorni ijro etish.** Bojxona sohasidagi ma’muriy huquqbuzarlik sodir etish quroli yoki bevosita shunday ashyo bo‘lgan narsani musodara qilish to‘g‘risidagi qaror O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi organlarining davlat ijrochilari tomonidan ijro etiladi. Ma’muriy huquqbuzarlik sodir etish quroli yoki bevosita shunday narsa bo‘lgan musodara qilingan narsani sotish va yo‘q qilib tashlash belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Ma’muriy huquqbuzarlikni sodir etish quroli yoki bevosita shunday narsa bo‘lgan ashyoni musodara qilish to‘g‘risidagi qaror ijro etilganidan so‘ng davlat ijrochisi ijro ishi yuritishni tamomlash to‘g‘risida qaror chiqaradi va uning bir nusxasini uni chiqargan jinoyat ishlari bo‘yicha sudga yuboradi (MJtK 337-339-moddalar).

**Buni bilish kerak !**

**Ma’muriy jazo qo‘llash to‘g‘risida qaror chiqargan organ (mansabdor shaxs) quyidagi hollarda uning ijrosini tugatadi:**

1) amnistiya akti e’lon qilinib, u ma’muriy jazo chorasi qo‘llanishini yo‘q qilsa;

2) ma’muriy javobgarlikni belgilovchi normativ hujjat bekor qilingan bo‘lsa;

3) ustidan qaror chiqarilgan shaxs vafot etgan bo‘lsa. Basharti, ma’muriy jazo qo‘llash to‘g‘risida qaror chiqarilgan kundan boshlab **uch oy davomida** ijro etishga qaratilmagan bo‘lsa, u holda bunday qaror ijro etilmaydi.

Xulosa qilib aytganda, har bir sodir etilgan ma’muriy huquqbuzarlik uchun aybdor shaxslarga nisbatan ma’muriy jazo qo‘llash zarur bo‘lib, bu ta’sirchan chora kelgusida ma’muriy huquqbuzarliklarni takrorlanmasligiga xizmat qiladi.

**O‘zingizni sinab ko‘ring !!!**

1. Ma’muriy jazo qo‘llash muddatlarini aytib bering?
2. Ma’muriy jazo qo‘llash to‘g‘risidagi qarorni ijro etish tartiblarini tushuntirib bering?
3. Qanday hollarda ma’muriy jazo qo‘llash to‘g‘risida qaror ijrosi tugatiladi?

## 5.2-§ Jarima solish tarzidagi ma’muriy jazoni qo‘llash to‘g‘risidagi qaror ijrosini kechiktirish haqida qaror namunasi

**Jarima solish tarzidagi ma’muriy jazo qo‘llash to‘g‘risidagi qaror ijrosini kechiktirish haqida**
**QAROR**

20 __ yil “___” _____________ ____________________________
*(kun, oy)* *(hudud nomi)*

_______________________________________________________________
*(jarima ko‘llash haqidagi qarorni chiqargan organ (mansabdor shaxs)*
tomonidan fuqaro ___________________________________________________
*(huquqbuzarning F.I.SH., ish joyi, lavozimi, yashash manzili)*
________________________ ga nisbatan 20 ___ yil “___” _______________ da O‘zbekiston Respublikasining MJtK _____-moddasiga asosan __________________________________ so‘m jarima jazosi qo‘llash to‘g‘risida
*(jarima summasi son va so‘z bilan yoziladi)*
chiqarilgan qarorni darhol ijro etishga imkon bermaydigan holatlar o‘rganilib, quyidagilar

**ANIQLANDI:**

_______________________________________________________________
*(jarima jazosi ko‘llash to‘g‘risidagi qarorni darhol ijro etishga imkon bermaydigan*
_______________________________________________________________
*holatlar bayonihamda asosliligi)*

Qayd qilinganlarga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasining MJtK 328-moddasiga asosan,

**QAROR QILINDI:**

Fuqaro ____________________________________________ ga nisbatan
*(huquqbuzarning F.I.SH.)*
20 ___ yil “____” ________________ da O‘zbekiston Respublikasining MJtK ______-moddasiga asosan _____________________________ so‘m jarima jazosi
*(jarima summasi son va so‘z bilan yoziladi)*
qo‘llash to‘g‘risida chiqarilgan qaror ijrosi 20 ___ yil “___” __________ gacha kechiktirilsin.

_____________________ ________ __________________
*(mansabdor shaxs lavozimi)* *(imzo)* *(F.I.SH.)*

## 5.3-§ Jazo qo‘llash to‘g‘risidagi qaror ijrosini tugatish haqida qaror namunasi

**Jazo qo‘llash to‘g‘risidagi qaror ijrosini tugatish haqida**
**QAROR**

20 __ yil “___” _____________ ___________________________
*(kun, oy)* *(hudud nomi)*

_______________________________________________________________
*(jazo qo‘llash to‘g‘risidagi qarorni chiqargan davlat organi yoki mansabdor shaxs)*
tomonidan fuqaro ________________________________________________ ga
*(huquqbuzarning F.I.SH., ish joyi, lavozimi, yashash manzili)*
nisbatan O‘ zbekiston Respublikasining MJtK _____- moddasiga asosan 20 ___ yil “___” _____________ da _______________________ tarzidagi jazo
*(jazo turi)*
qo‘llash to‘g‘risidagi qaror ijrosini tugatish uchun asos bo‘lgan holatlarni o‘rganib chiqib, quyidagilar

**ANIQLANDI:**

_______________________________________________________________
*(qaror ijrosini tugatish uchun asos bo‘ladigan holatlar bayoni)*[1]
_______________________________________________________________

Qayd qilinganlarga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasining MJtK 329-moddasini qo‘llab,

**QAROR QILINDI:**

Fuqaro _____________________________________________ ga nisbatan
*(huquqbuzarning F.I.SH.)*
O‘zbekiston Respublikasining MJtK ____-moddasiga asosan 20 ___ yil “ ___” _____________ da ________________________________tarzidagi jazo
*(jazo turi)*
qo‘llash to‘g‘risidagi qaror ijrosi tugatilsin.

_____________________ ________ __________________
*(mansabdor shaxs lavozimi)* *(imzo)* *(F.I.SH.)*

---

[1] Ma’muriy jazo qo‘llash to‘g‘risidagi qarorning ijrosi amnistiya akti e’lon qilinib, u ma’muriy jazo chorasini qo‘llanishni yo‘q qilsa, ma’muriy javobgarlikni belgilovchi normativ hujjat bekor qilingan bo‘lsa, ustidan qaror chiqarilgan shaxs vafot etgan bo‘lsa, uni chiqargan organ (mansabdor shaxs) tomonidan tugatiladi.

## 5.4-§ Jarima solish haqidagi qarorni majburiy ijro etish uchun yuborish xati namunasi

20 __ yil "___" _____________ ________________________________

*(majburiy ijro byuroning tegishli hudud bo'limi)*

________________________-son

**Jarima solish haqidagi qarorni majburiy ijro etish uchun yuborish haqida**[1]

_______________________________________________________________

*(jarima solish to'g'risida qaror chiqargan organ)*

20 ___ yil " ___" ____________ fuqaro _________________________________

*(huquqo'buzarlik sodir etgan shaxsning F.I.Sh.,*

___________________________________________________________ tomonidan

*tugilgan yili, joyi, ish (o'qish) va yashash manzili)*

___________________________________________________________ yuzasidan

*(sodir etilgan huquqbuzarlikning mohiyati)*

ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish ko'rib chiqilib, unga nisbatan MJtKning _____-moddasiga asosan _________________________________ so'm jarima solish to'g'risida qaror chiqarilgan.

Qaror nusxasi huquqbuzarga ixtiyoriy ijro etish uchun 20 ___ yil " ___" _____________ da topshirilgan.

Fuqaro ____________________ MJtKning 332-moddasida belgilangan

*(F.I.Sh.)*

muddatda o'z ixtiyori bilan jarima summasini to'lamaganligi bois, jarima solish to'g'risidagi qaror nusxasi majburiy ijro etish uchun yuborilmoqda.

Natijasi haqida qonunda belgilangan tartibda ma'lum qilishingiz so'raladi.

Ilova: " ____" varaqda

______________________ ________ ___________________

*(mansabdor shaxs lavozimi)* *(imzo)* *(F.I.SH.)*

---

[1] Idoraning rasmiy blankasida tayyorlanadi.

## 5.5-§ O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasining Yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali qayd etilgan huquqbuzarliklar uchun shaxslarning ma’muriy javobgarligi

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi davlat bojxona organlarining ma’muriy amaliyot faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha bir qator islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Jumladan, 2021 yil 4 oktyabr kuni “O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga qo‘shimcha va o‘zgartishlar kiritish haqida”gi O‘RQ-720-sonli O‘zbekiston Respublikasining qonuni qabul qilindi. Mazkur qonun bilan davlat bojxona organlariga O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasining Yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali aniqlangan huquqbuzarliklar uchun shaxslarni ma’muriy javobgarlikka tortish, ya’ni huquqbuzarning ishtirokisiz, bayonnoma tuzmasdan jarima solish to‘g‘risida qaror qabul qilish vakolati berildi. Ushbu yo‘nalishda qonunchilikka kiritilgan o‘zgartirishlar bojxona organlarining ma’muriy amaliyot faoliyatini soddalashtirilgan tartibda amalga oshirish imkoniyatini beradi. SHuningdek, mazkur o‘zgartirish bojxona organlarining ma’muriy amaliyot faoliyatida yangicha tartib-qoidalarni belgilab berayotganligi sababli quyida O‘zbekiston Respublikasining O‘RQ-720-son Qonuni bilan amaliyotga joriy etilayotgan tartiblar to‘g‘risida batafsil ma’lumot berib o‘tiladi. O‘zbekiston Respublikasining 720-son Qonuni Davlat bojxona qo‘mitasining 2021 yil 11 oktyabrdagi 219-son buyrug‘i bilan ijroga qabul qilindi va ushbu qonun 2022 yilning 5 yanvar kunidan amaliyotga joriy etilishi belgilandi.

Qonunga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi (keyingi o‘rinlarda MJtK deb yuritiladi) quyidagi mazmundagi **$17^2$-modda** bilan to‘ldirildi.

**“MJtK $17^2$-modda. O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasining YAgona avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali qayd etilgan huquqbuzarliklar uchun shaxslarning ma’muriy javobgarligi**

Ushbu Kodeks $227^{10}$-moddasining ikkinchi qismida va $227^{13}$-moddasining uchinchi qismida nazarda tutilgan ma’muriy

huquqbuzarliklar sodir etilgan taqdirda**, deklarant yoxud uning ishonchli vakili** ma’muriy javobgarlikka tortiladi.

Ushbu Kodeks 227[16]-moddasining birinchi qismida nazarda tutilgan ma’muriy huquqbuzarlik sodir etilgan taqdirda, **bojxona organi oldidagi majburiyatni o‘z zimmasiga olgan shaxs** ma’muriy javobgarlikka tortiladi.

Ushbu Kodeks 227[22]-moddasining ikkinchi qismida nazarda tutilgan ma’muriy huquqbuzarlik sodir etilgan taqdirda, **deklaratsiyalovchi shaxs** ma’muriy javobgarlikka tortiladi, bunda, agar mazkur huquqbuzarlik bojxona rasmiylashtiruvi uchun taqdim etilgan hujjatlarda noto‘g‘ri axborot ko‘rsatilganligi oqibatida sodir etilgan bo‘lsa, tegishli hujjatlarni va axborotni taqdim etgan deklarant yoxud uning ishonchli vakili ma’muriy javobgarlikka tortiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasining Yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali qayd etilgan bojxona to‘g‘risidagi qonunchilik buzilganligiga doir ma’muriy ishlarni ko‘rib chiqishda huquqbuzarlik takroriy sodir etilganligi e’tiborga olinmaydi, bundan ushbu Kodeks 321-moddasining uchinchi qismida nazarda tutilgan hol mustasno.”

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, MJtKning 17[2]-moddasi talablariga ko‘ra, quyidagi **4 ta huquqbuzarliklar** soddalashtirilgan tartibda ko‘rib chiqiladigan bo‘ldi:

♦ **227[10]-moddasi ikkinchi qismi** (bojxona deklaratsiyasini, hujjatlar va qo‘shimcha ma’lumotlarni belgilangan muddatlarda taqdim etmaslik);

♦ **227[13]-moddasi uchinchi qismi** tovarlarni bojxona rejimida saqlash muddatlariga rioya etmaslik);

♦ **227[16]–moddasi birinchi qismi** (O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududiga ilgari olib kirilgan tovarlar va transport vositalarini bojxona hududidan tashqariga belgilangan muddatlarda olib chiqmaslik, agar ularni qaytarib olib chiqish shart bo‘lsa);

♦ **227[22]-moddasi ikkinchi qismi** (noto‘g‘ri ma’lumotlarni ko‘rsatish, bu ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali tovarlarni olib o‘tish, ularni talab etilayotgan bojxona

rejimiga joylashtirish, bojxona to‘lovlari miqdori to‘g‘risida bojxona organi tomonidan qaror qabul qilinishiga ta’sir etmagan bo‘lsa) **nazarda tutilgan ishlar bo‘yicha bayonnoma tuzmasdan va qo‘shimcha hujjatlarni rasmiylashtirmasdan, huquqbuzar va xolislarning ishtirokisiz jarima solish haqida qaror chiqarish belgilandi.** Chunki MJtKning mazkur moddalarida ko‘rsatilgan huquqbuzarliklar Davlat bojxona qo‘mitasining Yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimida (YAAAT) yaqqol ko‘rinib turadi hamda bu qo‘shimcha isbotlash va dalillarni talab etmaydi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining 720-son Qonuni bilan MJtKning **262-moddasi quyidagi mazmundagi uchinchi qism** bilan to‘ldirildi:

**“O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasining YAgona avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali qayd etilgan ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rishga hamda jarima tariqasidagi ma’muriy jazo choralarini qo‘llashga bojxona organlarining bojxona nazorati va rasmiylashtiruvini amalga oshiradigan <u>bosh inspektorlari, katta inspektorlari (inspektorlari)</u> haqlidir”.**

Bundan ko‘rinib turibdiki, yuqorida ko‘rsatilgan 4 ta huquqbuzarlik holatlari DBQning YAAAT dasturi orqali aniqlanganda, bojxona organlarining bojxona nazorati va rasmiylashtiruvini amalga oshiradigan **bosh inspektorlari, katta inspektorlari va inspektorlari** 4 ta turdagi ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rishga hamda jarima tariqasidagi ma’muriy jazo choralarini qo‘llash vakolatiga ega bo‘ldi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining 720-son Qonuni bilan **MJtKning 283-moddasining 4-qismi** quyidagi mazmundagi o‘zgartirish bilan to‘ldirildi:

“Transport vositasidan foydalangan holda yo‘l harakati qoidalari buzilganligi maxsus avtomatlashtirilgan foto- va video qayd etish texnika vositalari orqali qayd etilgan, **shuningdek bojxona to‘g‘risidagi qonunchilik buzilganligi O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasining Yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali qayd etilgan taqdirda ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risida**

**bayonnoma tuzilmaydi.”** Ya’ni ushbu o‘zgartirishdan ko‘rinib turibdiki, DBQ YAAAT dasturi orqali aniqlangan yuqorida ko‘rsatilgan 4 ta turdagi huquqbuzarliklarga ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risida bayonnoma tuzish bekor qilindi.

Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasining 720-son Qonuni bilan **MJtK quyidagi mazmundagi 309$^2$-modda** bilan to‘ldirildi:

**“309$^2$-modda. Bojxona to‘g‘risidagi qonunchilikning buzilganligi O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasining YAgona avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali qayd etilgan hollarda jarima solish to‘g‘risidagi qaror**

O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasining Yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali qayd etilgan bojxona to‘g‘risidagi qonunchilikning buzilishlari bo‘yicha jarima solish haqidagi qaror ma’muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxsning ishtirokisiz chiqariladi.

Jarima solish to‘g‘risidagi qaror yuridik kuchga ega bo‘lgan elektron hujjat shaklida rasmiylashtiriladi hamda ushbu hujjatni tuzgan vakolatli shaxsning elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlanadi.

Jarima solish to‘g‘risidagi qaror chiqarilgan kundan e’tiboran **uch kun ichida** huquqbuzarga **elektron shaklda** yuboriladi yoki **qog‘oz shaklida** topshiriladi yoxud pochta orqali topshirilganligi ma’lum qilinadigan buyurtma xat bilan yuboriladi.

Jarima solish to‘g‘risidagi qarorda quyidagilar ko‘rsatilishi kerak: qaror chiqarilgan sana va joy; uni chiqargan organning nomi, shaxsning lavozimi va familiyasi; ma’muriy javobgarlikka tortilayotgan shaxs to‘g‘risidagi ma’lumotlar; ma’muriy huquqbuzarlik sodir etilgan (aniqlangan) vaqt, joy va holatlar, ushbu Kodeks Maxsus qismining mazkur huquqbuzarlik uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi moddasi ushbu moddaning qismi ko‘rsatilgan holda; qabul qilingan qaror, tayinlangan jarimani to‘lash tartibi va muddatlari, ma’muriy javobgarlikka tortilayotgan shaxsning huquq va majburiyatlari, shuningdek jarima solish to‘g‘risidagi qaror ustidan shikoyat berishning protsessual tartibi”.

Ushbu joriy etilgan tartibdan ko‘rinib turibdiki, bojxona organlarining bojxona nazorati va rasmiylashtiruvini amalga oshiradigan bosh inspektorlari, katta inspektorlari va inspektorlari tomonidan chiqarilgan jarima solish to‘g‘risidagi qaror yuridik kuchga ega bo‘lgan elektron hujjat hisoblanadi.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasining 720-son Qonuni bilan MJtKning $227^{10}$-modda ikkinchi qismining, $227^{13}$-modda uchinchi qismining, $227^{16}$-modda birinchi qismining va $227^{22}$-modda ikkinchi qismining sanksiyalarida mazkur huquqbuzarliklarni sodir etgan shaxslarga **bazaviy hisoblash miqdorining uch baravari miqdorida** jarima solish belgilandi. Ya’ni bojxona organlarining bojxona nazorati va rasmiylashtiruvini amalga oshiradigan bosh inspektorlari, katta inspektorlari va inspektorlari O‘zbekiston Respublikasi MJtKning MJtKning $227^{10}$-modda ikkinchi qismi, $227^{13}$-modda uchinchi qismi, $227^{16}$-modda birinchi qismi va $227^{22}$-modda ikkinchi qismida ko‘rsatilgan huquqbuzarliklarni sodir etgan shaxslarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri jarima solish to‘g‘risida qaror chiqarib, bazaviy hisoblash miqdorining uch baravari miqdorida jarima solish vakolatiga ega bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasining 2021 yil 11 oktyabrdagi 219-son buyrug‘i talablariga ko‘ra, bojxona organlarining bosh inspektorlari, katta inspektorlari va inspektorlari jarima solish to‘g‘risidagi qarorni “Bojxona qonunbuzarlik holatlari hisobini yuritish” avtomatlashtirilgan axborot tizimida yaratilgan **“E-qaror” moduli** orqali shakllantirib, huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarga ijro uchun jo‘natishi belgilandi.

**E’tibor bering !**

O‘zbekiston Respublikasi MJtKning “**Jarima solish to‘g‘risidagi qarorni ijro etishning soddalashtirilgan tartibi”** nomli **$332^{1}$-moddasida** belgilangan qoidalarga ko‘ra, huquqbuzar, unga bojxona organi mansabdor shaxslarining jarima solish haqidagi qarori topshirilgan kundan boshlab **o‘n besh kun ichida** jarima miqdorining **etmish foizini** ixtiyoriy ravishda to‘lagan taqdirda, u jarimaning qolgan qismini to‘lashdan ozod qilinadi.

Ammo, quyidagi hollarda huquqbuzarlarga nisbatan jarima solish to‘g‘risidagi qarorni ijro etishning soddalashtirilgan tartibi qo‘llanilmaydi ***(ya’ni jarimani 30%ni to‘lamaslik bo‘yicha imtiyoz berilmaydi)***:

- jarima solish to‘g‘risidagi qaror ustidan shikoyat qilinganda yoki protest bildirilganda;
- xuddi shunday huquqbuzarlik ma’muriy jazo chorasi qo‘llanilganidan keyin **bir yil davomida** takror sodir etilganda.

Shuningdek, bojxona organi mansabdor shaxslarining jarima solish haqidagi qarori xususida berilgan shikoyat yoki bildirilgan protestni ko‘rib chiqish paytida jarima solish haqidagi qaror bekor qilingan taqdirda, mazkur ish ma’muriy huquqbuzarlikni sodir etgan shaxsga nisbatan u ilgari sodir etgan huquqbuzarliklarning takroriyligini inobatga olgan holda umumiy asoslarda ko‘rib chiqiladi. Ya’ni O‘zbekiston Respublikasi MJtKning 283-moddasi 3-qismida belgilangan: **”Basharti fuqaro o‘ziga solinadigan jarimaga e’tiroz bildirsa, u holda ushbu Kodeksning 279-moddasiga muvofiq bayonnoma tuziladi.”** qoidaga asosan, huquqbuzarga nisbatan huquqbuzarlik aniqlanganligi to‘g‘risida bayonnoma tuziladi, huquqbuzardan tushuntirish xati olinadi, xolislar jalb etiladi va ulardan tushuntirish xati olinadi hamda huquqbuzarlik faktiga oid qo‘shimcha hujjatlar to‘planib, ko‘rib chiqib, qaror qabul qilish uchun sud organlariga yuboriladi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasining Yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali aniqlangan huquqbuzarliklar bo‘yicha bojxona organlari ma’muriy amaliyotining soddalashtirilgan tartibi joriy etildi.

Mazkur yangi tartib asosida kelgusida bojxona organlarining ayrim huquqbuzarliklar bo‘yicha ma’muriy amaliyot faoliyatiga oid ish yuritish jarayonlariga 10-15 daqiqa vaqt sarflanib, ish yuritish jarayoni mantiqiy nihoyasiga etkaziladigan bo‘ldi.

Bu esa o‘z navbatida bojxona sohasiga oid ayrim huquqbuzarliklarni ko‘rib chiqib, yakuniy qaror qabul qilishgacha bo‘lgan 17-20 kun muddat sarflanishini, tashqi iqtisodiy faoliyat

sub’ektlari hamda bojxona xodimlarining qo‘shimcha xarajat va ovoragarchiligini oldini oladi.

**O‘zingizni sinab ko‘ring !!!**

1. O‘zbekiston Respublikasining O‘RQ-720-son qonuniga asosan, qanday huquqbuzarliklar bo‘yicha bojxona organlari xodimlari jarima solish to‘g‘risida qaror qabul qilishi mumkin?

2. Davlat bojxona qo‘mitasining Yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali aniqlangan huquqbuzarliklar bo‘yicha jarima solish to‘g‘risidagi qaror ning mazmuni haqida gapirib bering?

## 5.6-§ O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasining Yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali qayd etilgan huquqbuzarliklar bo‘yicha jarima solish to‘g‘risidagi qaror namunasi

**Е - ҚАРОР**

**1726/20-00001-рақамли жарима солиш тўғрисида қарор**

05.01.2022 йил — (қарор чиқарилган сана)

Тошкент шаҳар — (қарор чиқарилган жой)

Мен, Тошкент шаҳар божхона бошқармаси "Сергели" ТИФ божхона пости инспектори **Саидов Ахмад Азизович** Давлат божхона қўмитасининг "Электрон божхона расмийлаштируви" ААТ дастури орқали қайд этилган, фуқаро

**Абдуллаев Жамшид Ваҳобович**, 10.10.1986 йилда туғилган, Тошкент шаҳри Сергили тумани Йўлдош-2, 62 23-уйда яшовчи, паспорт серия ва рақами АА № 5554433 бўлган,

томонидан расмийлаштирилган БЮДни хато тўлдириш ҳолати тафсилотларини кўриб чиқиб, қуйидагиларни

**АНИҚЛАДИМ:**

05.01.2022 йилда фуқаро Абдуллаев Жамшид Ваҳобович 26002/05.01.2022/5555555-сонли божхона юк декларациясини тўлдиришда нотўғри маълумотлар кўрсатиб, божхона юк декларациясини тўлдириш тартибига риоя қилмаган.

Яъни, БЮДнинг 8-графасига ташкилот СТИР рақами аслида 302847804 бўлсада 302847408 деб, 9-графасига ташкилот СТИР рақами аслида 304879252 бўлсада 304875292 деб нотўғри маълумот киритган.

Бу билан фуқаро Хегай Наталья Валерьевна Ўзбекистон Республикаси МЖтКнинг $227^{22}$-моддаси 2-қисмида назарда тутилган ҳуқуқбузарликни содир этган.

| БЮДнинг тўлиқ кўнишини қуйидаги манзил бўйича кўришингиз мумкин QR-CODE |
|---|
| |

**Ўзбекистон Республикаси МЖтКнинг $17^2$, 262, $309^2$-моддасига асосланган ҳолда қарор қиламан:**

Божхона юк декларациясини хато тўлдирганлиги учун Хегай Наталья Валерьевнага Ўзбекистон Республикаси МЖтКнинг $227^{22}$-моддаси 2-қисмига асосан, базавий ҳисоблаш миқдорининг уч баравари, яъни 810 000,0 (саккиз юз ўн минг сўм 00 тийин) сўм миқдорида жарима белгилансин.

Мазкур қарор устидан юқори турувчи органга (мансабдор шахсга) ёки туман (шаҳар) маъмурий судига унинг нусхасини олган кунингиздан бошлаб 10 (ўн) кун ичида шикоят беришингиз мумкин. Шикоят маъмурий ҳуқуқбузарлик тўғрисидаги иш юзасидан қарор қабул қилинган (мансабдор шахс) орқали ёки бевосита шикоят йўллаган судга юборилади.

Тайинланган жаримани қарор чиқарилган кундан бошлаб 30 (ўттиз) кундан кечиктирмай, ушбу қарор хусусида шикоят берилган ёки протест билдирилган тақдирда эса, шикоят ёки протест қаноатлантирилмаганлиги тўғрисида хабар берилган кундан эътиборан 15 (ўн беш) кундан кечиктирмай тўлашингиз лозим.

Шунингдек, агар ушбу қарор топширилган кундан бошлаб ўн беш кун ичида жарима миқдорининг етмиш фоизи ихтиёрий равишда тўласангиз, жаримани қолган қисмини тўлашдан озод қилинасиз (бундан жарима солиш тўғрисидаги қарор устидан шикоят қилинган ёки протест билдирилган ҳоллар мустасно).

Мазкур қарор юзасидан қўшимча саволлар бўлса 71 120-76-00 телефон рақамига соат 9:00 дан 18:00 гача мурожаат қилишингизни тавсия қиламиз.

**"Сергели" ТИФ божхона пости инспектор** / имзо / **А.Саидов**

---

*ХАБАРНОМА*

Тошкент шаҳар божхона бошқармаси

| | | | |
|---|---|---|---|
| Банк номи | Марказий банк Тошкент шаҳар Бош бошқармаси ҲККМ | | |
| Олувчининг ҳисобрақами | 23402000300100001010 | Банк коди | 00014 |
| Тўловчининг манзили | ТОШКЕНТ ШАҲРИ СИРҒАЛИ ТУМАНИ ЙУЛДОШ-2: 62 23 | | |
| Ғазна ҳисобвараги | 401422860730209343017517 9 | СТИР | 201122919 |

Абдуллаев Жамшид Ваҳобович 10.10.1986 й. т

**1700/ 20133357421**

| Тўлов тури | Санаси | Пул миқдори |
|---|---|---|
| БОЖХОНА ҚОИДАСИНИ БУЗГАНИ УЧУН | 05.01.2022 | **810 000,00** |
| Тўловчи | Жами | **810 000,00** |

Саккиз юз ўн минг сўм 00 тийин

*Хазиначи*

Тошкент шаҳар божхона бошқармаси

| | | | |
|---|---|---|---|
| Банк номи | Марказий банк Тошкент шаҳар Бош бошқармаси ҲККМ | | |
| Олувчининг ҳисобрақами | 23402000300100001010 | Банк коди | 00014 |
| Тўловчининг манзили | ТОШКЕНТ ШАҲРИ СИРҒАЛИ ТУМАНИ ЙУЛДОШ-2: 62 23 | | |
| Ғазна ҳисобвараги | 401422860730209343017517 9 | СТИР | 201122919 |

Абдуллаев Жамшид Ваҳобович 10.10.1986 й. т

**1700/ 20133357421**

| Тўлов тури | Санаси | Пул миқдори |
|---|---|---|
| БОЖХОНА ҚОИДАСИНИ БУЗГАНИ УЧУН | 05.01.2022 | **810 000,00** |
| Тўловчи | Жами | **810 000,00** |

Саккиз юз ўн минг сўм 00 тийин

*ПАТТА*
*Хазиначи*

## O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasining Yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali qayd etilgan huquqbuzarliklar bo‘yicha jarima solish to‘g‘risidagi

## Q A R O R



# X U L O S A

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi hududida bojxona sohasiga oid ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritish, ko‘rib chiqish va ma’muriy huquqbuzarlik holatlariga nisbatan jazo qo‘llash to‘g‘risidagi qarorlarni ijro etishga oid tartib-qoidalar asosan, O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi va boshqa qonunosti hujjatlari bilan tartibga solingan. Ammo ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritish amaliyoti shuni ko‘rsatmoqdaki, vakolatli mansabdor shaxslar tomonidan bojxona sohasiga oid ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlarni yuritish davomida xato va kamchiliklarga yo‘l qo‘yish holatlari uchramoqda. Shu bois, yuqorida bayon etilgan ma’muriy huquqbuzarliklarga oid ish yuritishga oid tartib-qoidalar va ma’muriy huquqbuzarliklar bo‘yicha ish yuritishda rasmiylashtiriladigan protsessual hujjatlar namunalari “Bojxona sohasidagi ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritish tartibi va protsessual hujjatlar namunalari” nomli uslubiy ko’rsatmada jamlandi.

Bu borada shuni ta’kidlash joizki, hozirgi kunda ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha ish yuritish bojxona organlari mansabdor shaxslarining ma’muriy – protsessual faoliyati hisoblanadi. Davlat bojxona organlari xodimlarining ma’muriy huquqbuzarlik holatlari bo‘yicha ish yuritish qoidalarini mukammal bilishi va amaliyotda to‘g‘ri qo‘llashi ma’muriy huquqbuzarlik sodir etgan aybdor shaxslarni ma’muriy javobgarlikka tortishning kafolati hisoblanadi.

Shu bois, “Bojxona sohasidagi ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritish tartibi va protsessual hujjatlar namunalari” nomli uslubiy ko’rsatma kelgusida bojxona organlarining ma’muriy huquqbuzarliklarga oid ish yuritish amaliyotini takomillashtirishga, shu jumladan, ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritish amaliyotida uchrayotgan xato va kamchiliklarni bartaraf etishga, mansabdor shaxslarning bilim, ko‘nikma va malkalarini oshirishga xizmat qiladi.

## Bojxona sohasidagi ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ish yuritishni tartibga soluvchi asosiy normativ-huquqiy hujjatlar RO’YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.

2. O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi.

3. O‘zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi.

4. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi.

5. O‘zbekiston Respublikasining 2001 yil 29 avgustdagi “Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to‘g‘risida”gi 258-P-son Qonuni.

6. O‘zbekiston Respublikasining 2010 yil 29 sentyabrdagi “Voyaga etmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida”gi O‘RQ-263-son Qonuni.

7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 25 maydagi “Qonun hujjatlari buzilganligi uchun ushlangan transport vositalarini to‘xtash joylariga olib kelish, joylashtirish va saqlash tartibini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 149-son Qarori.

8. O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo’mitasining 2015 yil 3 martdagi “Bojxona organlari tomonidan aniqlangan huquqbuzarlik holatlari bo’yicha tuziladigan protsessual hujjatlar shakllarini tasdiqlash to’g’risida”gi 45-son buyrug’i.

9. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 2018-yil 30-noyabrdagi “Sudlar tomonidan ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rishni tartibga soluvchi qonunlarni qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi 35-sonli qarori.

**S.SHOMIRZAEV, B.SHERALIEV, F.GAFUROV**

# BOJXONA SOHASIDAGI MA'MURIY HUQUQBUZARLIKLAR TO'G'RISIDAGI ISHLARNI YURITISH TARTIBI VA PROTSESSUAL HUJJATLAR NAMUNALARI

**USLUBIY KO'RSATMA**

Bojxona institutining bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Toshkent sh., Qozirobod 2-tor ko`chasi, 118-uy.